

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

O'ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

RAJAPOVA GULMIRA KARIMBOYEVNANING

**«Umumta'lim maktablarida Erkin Vohidov adabiy
merosini o'rgatish» mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

NUKUS - 2011

Malakaviy bitiruv ishi O`zbek adabiyoti kafedrası yig`ilishining 2011-yil «____» _____dagi №__ bayonnomasi bilan himoyaga tavsiya qilindi.

Fakul`tet dekani:

f.f.n., dots. K.Tashanov

Kafedra mudiri:

f.f.n., dots. S.Matyakupov

Ilmiy rahbar:

Sh. Aldasheva

Rajapova Gulmira Karimboevnaning «Umumta`lim maktablarida Erkin Vohidov adabiy merosini o`rgatish» mavzusidagi malakaviy-bitiruv ishiga Davlat attestatsiya komissiyasining qarori bilan «____» ball («____%») qo`yildi.

«____» _____ 2011-yil

DAK kotibasi:

S.Bekchanova

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
I BOB	
ERKIN VOHIDOV DAVR VA SHAXS KUYCHISI	8
II BOB	
UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA ERKIN VOHIDOV ADABIY	
MEROSINI O'RGATISH USULLARI.....	27
XULOSA	52
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	54

KIRISH

«Millatimizning ruhi bo'lgan ona tilimizni, xalqimizning azaliy qadriyatlarini kelgusi avlodlarga etkazishda adabiyotning o'рни va ahamiyati beqiyos ekaniga jiddiy urg'u beriladi. Adabiyotga e'tibor-ma'naviyatga, kelajakka e'tibor ekani, binobarin, adabiyotimiz rivoji uchun nafaqat yozuvchi va shoirlar, balki butun jamiyat ma'sul ekani alohida ta'kidlanadi»¹.

Hech shubhasiz, ziyolilarning ilg'or qismi bo'lishi badiiy adabiyot vakillarining xalqimiz qalbini, uning azaliy maqsadlari, bugungi hayoti, taqdiri va kelajagini yaqindan biladigan insonlar sifatida jamiyatimizdagi o'рни va ta'siri beqiyosdir.

Eng muhimi, yozuvchilarimiz o'tish davrining qiyinchiliklariga qaramasdan, o'z ijodiga, qalb amri bilan tanlagan kasbiga sodiq qodib, milliy o'zligimizni anglash, xalqimiz ongi tafakkurini o'zgartirish, ma'naviy qadriyatimizni tiklash va yuksaltirish yo'lida xizmat qilib kelayotganini ta'kidlash har tomonlama to'g'ri bo'ladi.

Shaxsan men shoir va adiblarni doimo jamiyatning oldingi saflarida yuradigan, hayotni kuzatib, odamlarning yuragida, dunyoqarashida bo'layotgan o'zgarishlarni hammadan avval sezib yorqin badiiy bo'yoqlar orqali mahorat bilan yoritib bera oladigan, el-yurt uchun kuyinib yashaydigan fidoyi insonlar, deb bilaman»².

«Ijodiy jarayonning, adabiyotning asosiy bunyodkori –bu yozuvchi va shoirlardir. Lekin bu ishni faqat ularning elkasiga tashlab qo'ymasdan, jamoatchilik, butun jamiyatimiz unga o'z hissasini qo'shishi kerak.

Qisqacha aytganda, boshqa sohalar qatori adabiyot sohasida ham xalqaro aloqalarni kuchaytirish zarur. Qaysi mamlakatda bizning adabiyotimiz, madaniyatimiz, qadriyatimizga hurmat bilan qarashadi, xorijdan biz nimalarni o'rganishimiz mumkin va o'z navbatida, ularga nimalarni taqdim etishimiz

¹ Islom Karimov. «Adabiyotga e'tibor - ma'naviyatga, kelajakka e'tibor». Toshkent 2009. B.4.

² Islom Karimov. «Adabiyotga e'tibor - ma'naviyatga, kelajakka e'tibor». Toshkent 2009. B.8

mumkin-bugun bu masalalar xalqaro maydonda o'zligimizni namoyon etishda katta ahamiyatga ega ekanligi doimo yodda tutishimiz lozim.

Bunday ijodiy hamkorlik aloqalarini bog'lashda albatta o'zaro tenglik, hurmat va samimiyat g'oyat zarur. Shuni unutmaslik kerakki, o'zbek millati o'zbek xalqi – xudoning nazari tushgan millat. O'zbekiston – Olloh nazar solgan yurt. Bizning yurtimiz, xalqimiz hech kimdan kam emas va hech qachon kam bo'lmaydi»¹.

«Mamlakat ta'lim tizimida 1997-yilga qadar qator yangiliklar amalga oshirildi, chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

..... jamiyatni ma'naviy jihatdan yangilamay turib, respublika fuqarolarining yangi avlodini voyaga etkazmay turib, erkin, mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalamay turib, farovon, qudratli demokratik davlat va ochiq fuqarolik jamiyati sari ildamlab bo'lmaydi.

Bu ishlarni amalga oshirishda Kadrlar tayyorlash milliy dasturining tutgan o'рни va ahamiyati bag'oyat ulkandir. Mazkur dastur g'oyasi va qoidalari raqobatbardosh malakali mutaxassis tayyorlash bilangina cheklanib qolmay, jamiyat hayotining, barcha yo'nalishlarini o'zida qamrab oladi.

Milliy dasturning maqsad va vazifalari avvalambor shaxsni shakllantirishga qaratilgan. Shaxs-islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir.

Milliy dasturdan ko'zlangan maqsad va vazifalarning to'la amalga oshishi, birlamchi navbatda, mamlakatimizdagi ijtimoiy-siyosiy muhitning yanada yaxshilanishiga olib keladi, jamiyatdayangi shaxs-komil insonlar vujudga keladi. Ular zamon talablariga javob beradigan, vatanparvar, chuqur tafakkurga ega, o'z diyorining buyukligini ta'minlashga qodir insonlar bo'lib etishadilar»².

«Iqtisodiy va siyosiy sohalaridagi barcha islohotlarimizning pirovard maqsadi yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini tashkil qilib berishdan iboratdir. Aynan shuning uchun ham ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va maorifni

¹ Islom Karimov. «Adabiyotga e'tibor - ma'naviyatga, kelajakka e'tibor». Toshkent 2009 B.32-34.

² Islom Karimov. «Ўzbekiston XXI asrga intilmoqda». Toshkent 2000 B. 250.

yuksaltirish, milliy uyg'onish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga etkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi»¹.

Adabiyot insonning ma'naviy dunyosini shakllantirish va axloqiy qiyofasini belgilashda eng samarali ta'sir ko'rsatuvchi san'at turidir.

Maktab o'quv predmeti sifatida adabiyotining o'ziga xosligi shundaki, uning o'rganish ob'ekti so'z san'ati namunasi bo'lishi badiiy asarlardir.

Maktabda adabiyot o'qitishning bosh maqsadi sog'lom e'tiqodli, o'zga insonning tuyg'ularini anglaydigan, o'tkir hissiyotli, yuksak didli, axloqan barkamol, aqlan etuk, o'z hatti-harakatlariga ma'sul bo'la oladigan komil shaxsning ma'naviy dunyosini shakllantirishdan iboratdir.

Maktabda adabiyot o'qitishning vazifalari o'quvchilarda badiiy adabiyotga mehr uyg'otish, ularni badiiy asarlarni o'qiydigan, tushunadigan va tahlil eta oladigan, o'z fikrlarini og'zaki yoki yozma tarzda to'g'ri hamda erkin ifodalay oladigan qilib tarbiyalashdan iboratdir.

O'zbekiston xalq shoiri, noyob iste'dod sohibi Erkin Vohidov she'riyatimizning porloq yulduzidir. Shu bilan birga u taniqli jamoat arbobi hamdir.

Erkin Vohidov adabiyotning turli janrlarida ijod qilib, asardan asarga o'sa bordi. Shoirning ijodiy o'sishida uning xalq hayoti va ustozlar mahoratini o'rganishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Erkin Vohidov adabiyotga XX asrning 60-yillarida kirib keldi. Uning o'ziga xos iste'dodi, avvalo, uning shoir sifatida o'zbek she'riyatiga kiritgan yangiliklarida yorqin namoyon bo'ladi.

Erkin Vohidov o'z she'riyatida, asarlarida inson, mehnat, sadoqat, samimiylilik, do'stlik, halollik, muhabbat va go'zallik singari adabiy dolzarb mavzularni tasvirlaydi.

¹ Islom Karimov. «Barkamol avlod –O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». Toshkent 1998.

Shoir she'rlarida go'zallik, vafo, sadoqat kabi ajoyib fazilatlarni keng tarannum etadi. Asarlarida ham turli xil mavzularni, urush, tinchlik, inson taqdiri, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni tasvirlab, xalqimiz qalbidan keng o'rin egallagan.

Ayniqsa, uning «O'zbekim» qasidasida milliylik, o'zbek xalqining ko'p asrlik tarixining o'ziga xos poetik ifodasi tasvirlanadi. She'rda millat ruhi, o'zligini anglash g'oyalari badiiy mahorat bilan ifodalangan.

«Nido» dostonida esa insoniyat boshiga tushgan eng katta falokat – ikkinchi jahon urushi keltirgan balolarning murg'ak o'smir taqdirida qoldirgan ayanchli oqibatlarini tasvirlanadi. Dostonda bola ruhiyatiga xos jihatlar haqqoniy tasvirlangan.

Maktab o'quvchilariga sevimli shoirimiz Erkin Vohidov she'rlari, asarlarini o'rgatish, shu orqali ularda tinchlik zamonimizning qadriga etish, tinchlik-totuvlikni saqlashga mudom intilish hissini shakllantirish, samimiylilik, sadoqat, mehnatsevarlik, xalq dardi bilan yashash hissini shakllantirish bitiruv malakaviy ishimiz asosini tashkil etadi.

I BOB

ERKIN VOHIDOV DAVR VA SHAXS KUYCHISI

Erkin Vohidov ma'rifatli, ziyoli oilada tug'ilgan. Onasi Roziyaxon, otasi Cho'yanboy qishloq o'qituvchilari va faollaridan bo'lishgan. Ota-ona vafotidan keyin u tarbiyalangan xonadon sohiblari – Sahiboevlar esa, taniqli jamoat arboblari bo'lgan. Erkinjonning tog'alari – Karimboy Sahiboev adliya xodimi, respublika Oliy sudi hay'ati a'zosi, Rixsi Sahiboev esa bir necha yillar Respublika Oliy Soveti Prezidiumining sekretari bo'lgan.

Sahiboevlar xonadoni adabiyotga, san'atga, umuman ma'rifatga tashna edi, xonadonda tez-tez shoir va xonandalarning maroqli davralari bo'lib turardi. Erkin Vohidovdagi nafosatga, she'riyatga mehr va mayl shu xonadonda, ana shu davralarda shakllandi. Sahiboevlar xonadonidagi davra qatnashchilari ayni paytda islom ma'rifatining darg'alaridan edilar. Erkin Vohidov tabiatidagi Sharq madaniyati va adabiyotiga chuqur ehtirom, sharqona odob – andisha, tavoze, bir chekkasi ana o'sha davra ishtirokchilari ta'sirida shakllangan.

She'riyatga mayl Erkin qo'lga juda erta qalam tutqazdi, shoir G'ayratiy bosh bo'lgan adabiy to'garakka etaklab keldi. Bu to'garak bo'lg'usi shoir uchun badiiy ijod bobida ilk saboq dargohi xizmatini o'tadi. So'ngra Erkin Vohidov Toshkent Davlat universiteti filologiya fakultetida ta'lim oldi. U o'qigan kezlarda (1955-1960) universitetning filologiya fakulteti respublikadagi ilmiy – adabiy markazlardan biriga aylangandi. Ayni o'sha yillari respublika Yozuvchilar uyushmasida ham ijodiy muhit jo'sh urgan, yosh iste'dodlar tarbiyasiga e'tibor kuchaygan, shoir Mirtemir bosh bo'lgan ijodiy seminar dovrug' qozongan bir davr edi. Ko'p yosh ijodkorlar qatori E.Vohidov ham mana shu ijodiy iqlim havosidan bahramand bo'ldi. Shoirning o'zi: «Mening she'riyatga oshno bo'lishimda G'ayratiy to'garagi, Mirtemir seminari, dorilfunundagi ijodiy muhit – ta'sir qilgan», - deya mamnuniyat bilan e'tirof etadi.

Erkin Vohidov shoir sifatida shakllangan 50 – yillar o'rtalari 60 – yillar boshlari jamiyatda yangi ruh, yangicha qarashlar qaror topayotgan davr edi, adabiyot va san'atda ham yangilanish belgilari paydo bo'ldi, ijod zaminini hislarga, haqiqatga, inson qalbiga yaqinlasha boshladi. Biroq bu jarayon osonlikcha kechgani yo'q. Shoir 90 – yillar boshida turib bosib o'tgan yo'lga nazar tashlar ekan, unda ko'p o'nqir – cho'nqirlar, izlanishlar borligini ko'radi. «Negaki, - deb yozadi u, - boshimizdan kechirgan kunlarimizning o'zi notekis, murakkab, xatolarga to'la bo'lgan. Biz haq so'zni aytish qiyin bo'lgan zamonda yashadik. Bu ish hozir ham, demokratiya va oshkoralik hukmron bo'layotgan davrda ham unchalik oson emas».

Ma'lumki, ijodning, ijodkorning shakllanishida ijtimoiy – siyosiy vaziyat, adabiy muhit, tarbiyaning ahamiyati qanchalar katta bo'lmasin, baribir iste'dod darajasi, fuqarolik vijdoni, imon – e'tiqodi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Yana shunisi borki, hatto qulay sharoitda ham ijod g'oyat o'ziga xos, iztirob va qiynoqlarga to'la betinim izlanishlar, ziddiyatlar ichida kechadi. Erkin Vohidovning ijodiy yo'lini kuzatganda, shoirning o'n besh yoshda yozgan oromgoh tongi haqidagi bolalarcha sodda ma'sum satrlaridan tortib 1992 yili chop etilgan mardona, shafqatsiz haqiqat yog'dulari bilan yo'g'rilgan «Yaxshidir achchiq haqiqat» kitobiga kirgan she'rlariga qadar bosib o'tgan ijodiy yo'lga nazar toshlaganda, bunga iqror bo'lasan, kishi.

Erkin Vohidov adabiyotga 30-40-yillar she'riyati ta'sirida hayot, yoshlik, sevgi kuychisi sifatida kirib keldi. Uning ilk mashqlarida tanqidchi Ozod Sharafiddinov aytganidek, ko'proq dunyoni endi kashf qilayotgan, o'zining kashfiyotidan o'zi zavqlanib, xursandchiligidan boshqalarni xabardor etishga oshiqayotgan, yashashning benihoya go'zal ekani, hayotning noyob ne'mat ekanini tushunib kelayotgan murg'ak qalbning quvonchlari bor.... Keyinroq shoir aql va his bahsga kirishib, hissiyotni ustun qo'ygan paytlari ham bo'ldi, ayni vaqtda aql – mushohada ustunlik qilib aqlli gap aytish uchungina she'rlar ham yozardi. Madhiya, faxriya, qasidachilik kayfiyatlariga berilgan onlari ham bo'ldi, romantik hayollar og'ushida ishqiy g'azallar bitdi, ko'ngil zavqini, sevgi, baxt nashidasini,

turmushdan shukronalik, roziligini to'lib-toshib kuyladi. Shu asarlar qatorida sodda-samimiy, bolalarcha sho'x, beg'ubor, hazil-mutoyiba bilan yo'g'rilgan she'rlar ham yozdi; ayni paytda, ko'ngil armonlarini, xalqimizning og'ir va shonli kechmishi, tariximizning qora va nurli sahifalarini ham she'rlarga soldi; lekin baribir, hayot madhi, sevgi sururi, faxr-iftixor tuyg'usi ijodida etakchilik qildi. Bunday kayfiyat, xususan, shoirning «Yoshlik devoni»da yorqin ko'rinadi.

«Yoshlik devoni» faqat E.Vohidov 60-yillar ijodining bir namunasi, o'sha kezlardagi shoir kayfiyatlari ifodasi bo'libgina qolmay, umuman she'riyatimiz taraqqiyotidagi muayyan tamoyilning ko'rinishi sifatida ham qimmatlidir. Gap shundaki, adabiyotda ilg'or sotsiolizm balosi hukmron bo'lgan kezlarda hammayoqni ijtimoiy-siyosiy mavzudagi yaxshi-yomon she'rlar bosib ketgan, sevgi shaxsiy –intim kechinmalar badnom etilgan, she'riyatdan quvilgan edi. 50-yillar oxiri, 60-yillarga kelib vaziyat o'zgara boshladi, inson shaxsiga e'tibor oshdi, kishining xilma-xil kechinmalari, jumladan, an'anaviy sevgi taronalari uchun qisman yo'l ochildi. Shunisi xarakterliki, she'riyatimizda sevgi ohanglarining qayta hayoti, an'anaviy she'riy shakli, ayniqsa g'azalning jonlanishiga olib keldi. Tabiiyki, bu jarayon o'sha kezlarda osonlikcha, silliq kechgani yo'q. Har qanday she'rdan to'ppa-to'g'ri zamonaviy, ijtimoiy-siyosiy ma'no qidirishga odatlangan aqidaparastlar nazarida sof ishqiy kechinmalarni kuylash, ifodalash ham, ko'hna she'riy shakl-aruzga murojaat qilish ham g'ayritabiiy, zamondan uzoqlashish bo'lib tuyular edi. E.Vohidov «Yoshlik devoni»ning «Debocha»sida shunday qarashlar bilan oshkora bahsga kirishadi:

Istadim sayr ayla mohni

Men g'azal bo'stonida,

Kulmangiz ne bor senga deb,

Mir Alisher yonida.

She'riyat dunyosi keng,

Gulzori ko'p, bo'stoni ko'p,

Har ko'ngil arzini aytur

Neki bor imkonida.

*Ey, munaqqid, sen g'azalni
Qo'hna deb kamsitmagil,
Sevgi ham Odam Atodin
Qolgan inson qonida...*

Shu tariqa, shoir inson qonidagi azaliy, tabiiy bebaho tuyg'u-sevgi bilan barobar necha asrlar sevgi kuyini kuylagan qadimiy g'azalni birdek himoya qiladi, she'rda g'azal shunchaki shakl ma'nosida emas, muhabbat, boqiy insoniy tuyg'ular ramzi tarzida ham qo'llangan. O'sha kezlarda shu tariqa aruzni, g'azalni amalda qat'iy turib himoya etib chiqish chindan ham ijodiy jasorat edi. Shoir Abdulla Oripov yozganidek, «mumtoz g'azaliyotimizning oltin eshiklari abadiy bekitiladi, deya karomat qilishayotganida yosh avlod orasidan birinchilardan bo'lib Erkin Vohidov aruzning tabarruk ostonasida posbon yanglig' paydo bo'ldi».

«Yoshlik devoni»dagi lirik qahramon ko'p hollarda mumtoz she'riyatimizdagi ishq yo'liga jonini tikkan, yor ko'ngli, vasli ko'yida har qanday jabru sitamlarga tayyor fidoyi oshiq:

*Barcha shodlik senga bo'lsin,
Bor sitam, zorlik menga.
Barcha dildorlik senga-yu,
Barcha xushtorlik menga...
Bu jahonning rohatin ol,
Bor azobin menga ber.
Senga bo'lsin barcha orom,
Barcha bedorlik menga.*

Shoir oshiq ko'nglining ma'shuqaga bo'lgan hadsiz mayli ifodasida xuddi mumtoz shoirlar kabi mubolag'ani xiyla oshiradi:

*Seni yotlar tugul hatto,
Qilurman rashk o'zimdan ham,
Uzoqroq termulib qolsam,
Bo'lurman g'ash ko'zimdan ham.
Ko'zim yongay senga nargis,*

*Ko'zin tiksa chamanlarda,
Yashirmam, lolaga rashkim,
Ayon bo'lgay yuzimdan ham.*

Oshiq yigitning dil rozlari, ma'shuqaning ta'rif – tavsifi har qancha mubolag'ador, romantik jilolar bilan yo'rilgan bo'lmasin, har ikkisi ham zamin va zamon farzandi, ular «o'z zamonan zayli»ga itoat etadigan bizga zamondosh odamlar.

Goho oshiqlar tilida an'anaviy ta'rif-tavsiflar hazil, kesatiq tusini oladi. «Hofizga» g'azalidagi oshiq ma'shuqasiga holi uchun «ming Samarqand, ming Buxoro»ni hadiya qilmoqchi bo'lganida ma'shuqa bunaqa mulku davlat, manga havas ko'rsatmaydi; «yulduzli samoni sovg'a aylarman» desa, «bu cho'tir ro'mol»ni nazar - pisand etmaydi; «hiloldan sirg'a taqmoq» istasa, «zormidim jezdan yasalgan hiylan a'mol uchun», deya bu taklifni ham rad qiladi. Oradagi bahs davom etadi.

*Ul parivash chehrasini,
Oyga etgandim qiyos,
Bir umr uzr ayturman,
Hajrda qaddimni dog.
Etding, desam, bergay javob
Kim qo'yibdur sevgini
Qaddi bukilgan chol uchun,
Nihoyat, shoir bahslarga yakun yasab deydi:
Yor istig'nosidin
O'lmasman-u, kuydim va lek-
Lobarim oldida nazmim,
Bu qadar behol uchun.*

«Yoshlik devoni» yana shu jihatdan ahmiyatliki, undagi g'azallar shakl bobida an'anaviylik va novatirlik xususida keng bahs yuritish tadqiqotlar olib borish uchun imkon beradi. Shakl ustida gap ketganda ko'pincha biror ijodkorning boshqa bir san'atkordan o'rgangani, masalan, shakl bobida uning tajribalarini

o'zlashtirgani, qandaydir an'analarni davom ettirgani haqida gapiriladi; tabiiyki, bu gaplarga «ijodiy o'zlashtirish», «ijodiy davom ettirish» iboralari ilova qilinadi... Sirtidan qaraganda, ijodkor shunchaki mavjud shakllardan foydalanayotgandek, tayyor, an'analarni, tajribalarni davom ettirayotgandek tuyuladi. Aslida esa, haqiqiy ijodkor tayyor shakllarni butunlay yangidan kashf qiladi. Bir qaraganda Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab an'anaviy aruzda, g'azalda, g'azalning muayyan tayyor qoliplarida ijod etgandek bo'lib ko'rinadi. Aslida, bu daho shoirlarning har biri o'sha aruz doirasida o'z she'riy shakllarini yaratganlar. Faqat tashqi ko'rinishda bu shoirlar qo'llagan g'azal shakllari-bahr, hijo turlari, qofiyalash tartiblari, qo'llagan san'atlarda mushtaraklik mavjud, xolos. Ammo shaklning, san'atning tub mohiyatini belgilovchi ichki hissiy ohang, shoir qalbining tebranishlari, xilma-xil jilolari, fikrlash yo'sini jihatidan ular bir-biridan keskin farqlanadi. Erkin Vohidov g'azallarida biz faqat uning o'zigagina xos shaklni yuzaga keltiradigan hissiy ohangni, qalb sadosini, tebranishlarini, fikrlash yo'lini ko'ramiz:

*Tun bilan yig'labdi bulbul,
G'uncha hajri dog'ida,
Ko'z yoshi shabnam bo'lib,
Qolmish uning yaprog'ida.*

Nihoyatda go'zal holat, hodisa, jarayonning bu qadar nafis, chiroyli, sirli-sehrli ohanglarga yo'g'rilgan ifodasini faqat Erkin Vohidov g'azalidagina uchratish mumkin.

*Gul bo'lib, gul-gul yonib
Gulshan aro Gulchehralar.
Gul uzib o'ynar, qo'shib
Gulga bino Gulchehralar.
Qay birisi qay biriga,
Oshiq erkan, bilmadim,
Gulmi yo Gulchehralarga,
Gulga yo Gulchehralar.*

G'azalning ikki bandi 28 so'zdan tashkil topgan bo'lsa, shulardan 12 tasi «gul» yoki «gul» o'zagidan yasalgan so'zlardir. Biroq she'rda so'z takrori xayolingizga ham kelmaydi, «gul» so'zi har gal yangi ma'no, yangi chiroy, yangi ohang kasb etadi. Shu tariqa, «Yoshlik devoni» bugungi ona tilimizning poetik imkoniyatlari naqadar boy va keng ekanini ham yana bir bor tasdiqlaydi.

Yillar o'tgani sari shoir ijodida fikrlar ufqi kengayib, his-tuyg'ular tobora serjilo bo'lib bordi. Shunga qaramay, shoirda qandaydir ijodidan qoniqmaslik, o'zini yangilashga moyillik kayfiyati tug'ildi. Bu kayfiyat 70-yillar boshlarida aniqrog'i 1972 yili yozilgan «Yo'qolgan she'r»da juda yaxshi ifodalangan.

Bilamizki, adabiyotdagi, binobarin, she'riyatdagi yangilik avvalo inson, uni yangicha tushunishdan boshlanadi. Erkin Vohidov she'riyatidagi burilish ham inson, uning hayoti mohiyatini murakkabligi bilan poetik idrok etishdan boshlangan. «Inson» qasidasida inson madhi, insonni ulug'lovchi satrlar bilan boshlanadi:

Sobitu sayyorada

Inson o'zing, inson o'zing.

Mulki olam ichra bir

Xoqon o'zing, sulton o'zing.

Shoir shu inson qudrati, xususan, uning hozirgi fan-texnika inqilobi sharoitidagi imkoniyatlari xususida so'z ochib, koinot sahrosida karvonu sarbon, keng jahon uning kaftida, shams-quyosh dil taftida ekanini aytadi. Inson izmidagi bu yorug' dunyo nadur, degan savol qo'yadi-da, keskin va shafqatsiz ravishda «Koshonadur, vayronadur», deya javob qiladi. Shu satrlardan boshlab she'rda madhiya ohangi chekinadi, shoirning ham faxr-iftixor, ham afsus-nadomatlarga to'la armonli nolasi yangray boshlaydi, bu yorug' dunyo, uning hoqoni, sultoni sanalmish zot-insonga xos ham kuchli, ham ojiz, musbat va manfiy jihatlarni, jamiki ziddiyatlarni ochishga kirishadi:

Bunda oq birla qaro

Zulmat, ziyo, shohu gado

Jang qilurlar doimo,

Ul yon o'zing, bul yon o'zing.

Sen balo, ham muftalo,

Xayr ila kin, rostu riyo,

Fitnagar olam aro

Fatton o'zing, qurbon o'zing.

Inson zotiga xos shu tarzda ziddiyatli ta'rif-tavsif davom etadi: inson goh adolat, goh adovat qo'ynida, o'z dilining dargohida esa, goh shayton, jon borki qasdi jon, qotil ham, qurbon ham, hayot ummonida qatraddek sarson ham, gardon ham – shu insonning o'zi! Ona zamin taqdiri shu ulug' zot-insonning o'z qo'li, ixtiyorida. Shoir insonni inson degan ulug' nomga munosib bo'lishi, farzandlik burchiga sodiq qolishi, zamin dardiga darmon, unga qalqon bo'lishini tilaydi...

«Inson» qasidasi bilan go'yo Erkin Vohidov ijodida inson to'g'risidagi she'riy bahslar turkumi boshlandi. «Inson, bu-sir, jumboq. Bu jumboqni yechish kerak», - degan edi F.Dostoevskiy. Adabiyotning, she'riyatning bosh vazifasi bu jumboqqa javob qidirishdan iborat.

Shoirni hammadan burun insonning ma'naviyati, e'tiqodi masalasi qiziqtiradi. Inson ezgu ishlar, yuksak e'tiqod bilangina inson. Iymon, vijdon, e'tiqod- insonni o'yidan yoritib, taftish qilib turuvchi, to'g'ri yo'lga boshlovchi sehrli «ilohiy» kuch. Shu muqaddas tuyg'udan mahrum shaxs esa qabih, ayanchli va qo'rqinchli, bunday kimsa qalbida nur, his, ko'zida ma'no yo'q, bersang bu dunyoni yutmoqqa ham qodir, zar qasdida, dunyo qasdida, shaxsiy manfaat yo'lida jamiki tubanliklar siri borishga tayyor. Shoirning qat'iy xulosasi shunday:

Iymon deng, vijdon deng, mayli otini, -

Lekin odamzotning «xudo»si bo'lsin.

E.Vohidovning 70-80-yillar ijodi she'riyatimizning realistik imkoniyatlarini kengaytirishi jihatidan ham ibratlidir.

Xususan, «Arslon o'ynatuvchi» she'ri bugungi she'riyatimizning katta yutug'i, realizmning ajoyib ehsoni. Xorijiy safar taassurotlari asosida yaratilgan bu she'r qaramlikka, mutelikka qarshi o'tkir aybnoma; faqat shugina emas, unda

qaramlik dunyosining shafqatsizligi – tirikchilik, hayot tashvishlari tirik mavjudotni odam bolasini ne ko'ylarga solishi butun dahshati bilan ko'rsatiladi.

E.Vohidovning avvalgi she'rlarida hodisaga munosabatda qandaydir ko'ngilchanlik, o'taserandishalik sezilib turar edi. Endigi she'rlarida hiyla keskinlik, lutf-iltifot o'rniga dangallik, gapning po'skallasini aytib qo'ya qolish, shiddat, haqiqatni oshkora ifodalash, bir so'z bilan aytganda, shafqatsiz realizm ustun.

Fursating etmaydi doim,

Hech qachon etgan emas.

Mehnating bitmaydi doim,

Hech qachon bitgan emas.

1976 yili bosilgan bu g'azalning so'zlash ohangi 6-yillar mahsuli bo'lishi «Yoshlik devoni»dagi g'azallardagidan o'zgacha, keskin ekani yaqqol ko'rinib turibdi.

E.Vohidovning avvalgi she'rlarida mumkin qadar hodisalarning dramatik jihatlari emas, poetik, go'zal tomonlariga ko'proq e'tibor beriladi, muallif hodisadan hamisha go'zallik qidirishga intilar edi. Endigi she'rlarida go'zallik tuyg'usi saqlangani holda, hodisalar zamiridagi ziddiyatlarni ochishga intilish kuchli. Vaqtning qadri haqida 60-yillari bitilgan «Bosh tebratar soat kafgiri» bilan «Bong uring» she'rini qiyoslab ko'raylik. Avvalgi she'rda ga yumshoqqina qilib aytilgan, keyinga she'rda esa, behuda isrof bo'layotgan vaqt haqida naqadar keskin gapiriladi:

Dod soling

Ne kechar holimiz,

Alamdan jonimiz qiynoqda.

Olamda topilmas molimiz-

Vaqtimiz yonmoqda, yonmoqda.

Shoirning bu davr ijodida kulgi-yumor ham o'zgacha ko'rinish kasb eta boshladi. «Donish qishloq latifalari»ni o'qib hamma kuladi. «Vaholanki, men ularni alam bilan yozganman», - deydi shoir. – Aql idrokka zid, teskari ishlarimiz

el boshiga kulfat va uqibatlar keltirib yotgani sir emas. Kosasi teskari ko'rilgan charxpalaklar kammi? Bir pardani tuygancha qolavergan, bir xil ohangni qo'ymay chalavergan Matmusalar ozmi? O'zimiz yaratgan qoliplarni tandirday kiyib olib yo'lni ko'rolmay, osmonga qaragancha ketayotgan honlarimiz yo'qmi? Bular kulgili ishlarmas, achinarli, ofatli hodisalar?

Erkin Vohidov ijodida, ayniqsa 70-80-yillar she'riyatida voqeabandlikka, rivoyat va hikoyat usuliga moyillik kuchli. Hajviy she'rlarning ko'pchiligi, jumladan, «Donish qishloq latifalari» boshdan oyoq shu yo'sinda bitilgan. Yana shunday asarlar borki, ular poema janriga yaqinlashib keladi. «Tushlik tanaffus» shoir ijodida ijtimoiy-publistik ruh g'oyat kuchaygan bir pallada 80-yillar boshida «Ruhlar isyoni» bilan «Istambul fojiasi» asarlari oralig'ida paydo bo'ldi. Shunga qaramay, bu erda keskin ijtimoiy masalalarni ko'tarish, inson taqdirini ijtimoiy-siyosiy hodisalar silsilasi bilan bog'liq holda badiiy taftish etish, binobarin, odatdagi publitsistik talqinlar ham yo'q.

Qahramonlar kundalik ishlar, maishiy hayot tashvishlari bilan band; shoirni ularning jamiyat hayoti; mehnati bilan bog'liq tashvishlari qiziqdirmaydi; asarda ular qismati va qalbidagi odamlar nazaridan chetda, hatto turmushdagi eng yaqin kishilari uchun ham pinhon qolgan dardu tashvishlari, armonlari qalamga olinadi. Qahramonlar o'ta kamsuqum, hokisor kimsalar. Asarda hatto ularning nomlari ham tilga olinmaydi. Ular bor yo'g'i uchta-er, xotin, begona ayol ma'shuqa.... Er hayotda sekingina yashab o'tgan: «na shodligi ayon, na dardi», «tonga to'g'ri ishga boradi, oqshom to'g'ri uyga qaytadi»-ulfati yo'q, ko'cha kezmagan, maishat ne bilmagan; «sodda, noshud, oriq, kichkina.. » Buning ustiga manglayiga azroildan «o'n bor ziyoda» xotin bitilgan. Bu sho'rlik bandaning umri shu azroil ayol zug'umi ostida kechgan. Nihoyat, shu xil zug'umlar oqibatida u bu olamdan benavo ketadi. Agar asar shu bilan tugaganda edi, u bizni unchalik qiziqdirmagan bo'lar edi. Asarni san'at asari qiladigan sirdan keyin voqif bo'lamiz.

Er o'limidan keyin xotinning ko'zi ochiladi, shaddod xotin daf'atan mushtiparga aylanadi – qoladi. Hayt kuni odatga muvofiq eri ruhini shod etish maqsadida mozoriga boradi, borib ajib holga duch keladi, eri qabriga o'zga bir

ayol sham yoqayotganini ko'radi, begona ayol marhumni erim, deb aytadi... Endi begona ayol qissasi boshlanadi. Er begona ayol bilan ishd, tushlik tanaffus paytida tanishgan, bir-biriga o'rganib qolishgan; bog'lanib qolishgan; begona ayol ham yolg'iz, na otasi, na onasi, na oilasi bor. Ikki dardkash qalbning yulduzlari bir-birlariga to'g'ri kelib qoladi; ularning visol onlari-tushlik, tanaffus daqiqalari, o'ksik qalblar izhori – nadomat, afsus, g'am-anduhlar izhori bilan o'tadi; er so'zlaganida ayol dil-dildan tinglaydi, ayol yig'laganda er ham dil-dildan kuyadi; er ham ayol ham hayot orzulariga erishadilar, hayotda orzu qilganlarini topadilar, biroq bu visol o'ttiz yil kechikkanini ham biladilar, kech bo'lsa ham ko'rishish, tanishish baxtiga muyassar bo'lganlari uchun shukr qiladilar. Tushlik tanaffus payti har ish kuni bir soatga cho'zilgan besh yil visol onlari ular hayotidagi eng baxtli damlardir.

*O'zga makon, o'zga zamonda
Mavjud bo'lgan olis yulduzlar,
El ko'zidan pinhon osmonda,
Ko'rishgandek faqat kunduzlar-
Biz ham shunday yashadik besh yil,
Bu ham turmush.*

deya hazil hikoyasini tugatadi ayol.

Shu sevgi qissasidan keyin sodda, nochor, ko'rimsiz, o'ta hokisor ko'ringan odam birdan boshqacha qiyofa kasb etadi: «qalbi uning bir olam», «teran fikrat, hislar musaffo» fidoyilik unda «jamuljam» ekani ma'lum bo'ldi.

*E voh qadrin bilmadi dunyo,
Tuproqdagi dur edi bu zot.
Mening zulmat hayotim aro
Yarq etgan bir nur edi bu zot.*

Notanish ayol tilidan aytilgan bu samimiy iqrar o'quvchi qalbiga ham ko'chib o'tadi.

Bu qadar sodda, samimiy, g'amgin va shu bilan barobar allaqanday nurli tuyg'ular, sirli –sehrli nafis ohanglar bilan yo'g'rilgan asarlar XX asr o'zbek

she'riyatida siyrak uchraydigan hodisa. Ijod jarayoni qiziq. Qarangki, shoirning 70-80-yillardagi ijodiga xos bosh printsiplardan chetroqda, sho'ro tanqidchiligi uncha xush ko'rmaydigan maishiy mavzuda «Tushlik tanaffus» deb sehrli mo'jiza yaratilgan.

80-yillar oxirlariga kelib shoirlarimizda ruhiy erkinlik to'la namoyon bo'la boshladi. E.Vohidovning shu davr mahsuli bo'lgan «Vatan umidi» she'rida shunday satrlar bor:

*Agarchi ismim Erkin,
Erki yo'q, bandi kishan bo'ldim.
Ko'zim bog'liq, dilim dog'liq,
Tilim yo'q, besuxan bo'ldim.
Chekibdur Boburi Furqat
Vatan hajrida afg'onlar,
Men ersam, vah, ne g'urbatkim.
Vatanda bevatan bo'ldim.
Olisda, oh, diyorim, deb,
Sog'ingan, ey vatandoshim,
Dema sen o'zni bebaxt,
Baxti yo'q aslida men bo'ldim.*

Hayriyatki, kechikib bo'lsa-da, adabiyot, she'riyat, shoirlarimiz shu azaliy muqaddas an'analarga qayta boshladilar. Shu yangi harakatning boshida turganlardan biri E.Vohidovdir.

*Kechir, yangilishmagan kim bor,
Mening ham ko'p gunohim bor.
Odamzod asli nokamil,
Kechir, yo rab, kechir, yo rab!*

Navoiy munojotlariga hamohang bunday satrlarni etmish yil davomida birorta ham «taniqli o'zbek sho'ro shoiri» bitmagan edi!

*Dilim charchab xatolardan,
El ichra mojarolardan,*

Qochar bo'lsam nizolardan

Yana sen oshno menga.

Shoirning «Yaxshidir achchiq haqiqat» kitobida «Tush» degan mo'jaza voqeaband she'r bor. Unda tush bilan o'ng-odamning arosatdagi mudroq, lanj holati ustida gap boradi. Shoir takror takror bir xil tush ko'radi, tushida mudrab yurgan el ichida yuradi, ular bilan birga o'zi ham mudrab asta qadam sudraydi:

Bu-tush, deyman,

Uyg'on, deyman,

Uyg'onolmay mudrayman.

Shoir yaratganga iltijo qilib, bunday mudhish kechaning, og'ir qiynoqning oxiri tezroq kelishini iltijo qiladi.

«Og'riqli savollar» she'rida xalq erki yo'lida jonini tikkan fidoyilar elni o'z ortidan boshlashi, uni qo'zg'atishi, g'alabaga erishishi ham mumkin.

Mudom kurash azobini fidoyilar ko'rganlar,

Inqiloblar hosilini muttahamlar o'rganlar.

Siz ham bugun panadasiz, jangga bizni qayraysiz,

Biz bu jangda shahid bo'lsak, avvalo siz yayraysiz.

Shoirni qiynagan yeri shundaki, xalqim deb kuyganida, elni kurashga chorlaganida, yuraklarga hurriyat tilaganida, yurtiga istiqlol istaganida shu muttahamlarni o'ylaganmidi?! She'r oxiridagi shoirning:

G'ofil xalqim! Tinglarmanmi sening na'ra-uningni,

Ko'rarmanni zuluklardan ozod bo'lgan kuningni?-

degan nidolari qalblarni titroqqa soladi.

Erkin Vohidovning keyingi she'rlari o'zini topish, o'zligini tanishdek mashaqqatli yo'l g'oyat sharaflilik ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Ayni shu yo'ldan borgan ijodkorlargagina shafqatsiz haqiqat eshiklari ochiladi, bu yorug' dunyoning siru asrorini anglab etish, tevarak-atrofdagi yuz berayotgan hodisalarning, turmush jumboqlarining tub mohiyatiga yetish imkoniyati tug'iladi.

E.Vohidov dostonlari haqida. Erkin Vohidov o'nga yaqin doston yozdi.

Ularning mavzu-mundariyasi, saviya –darajasi turlicha. Shakliy-uslubiy tomondan ham ular xilma-xil.

Shoirga dostonchilikda shuhrat keltirgan asarlari «Nido», «Ruhlar isyoni» hamda «Istambul fojeasi» bo'ldi. Nido 1964 yili yozildi, doston hanuz o'z qimmatini yo'qotgan emas. Asar maktab dastur va darsliklariga kiritildi, o'zbek o'quvchisining bir necha avlodi undan ma'naviy-badiiy saboq olib kelmoqda. Bu doston avvalo yuksak badiiyati, samimiyati, teran insoniyligi bilan ajralib turadi. Doston urush va inson muammosiga bag'ishlangan. Adabiyotda qayta-qayta qalamga olingan bu muammo E.Vohidov dostonida o'ziga xos tarzda ishlangan, hodisaga shaxsiy daxldorlik asarga samimiyat baxsh etgan. Ma'lumki, Erkinning otasi – Cho'yanboy Vohidov urush qurboni edi. Asarni shoir otasiga bag'ishlagan. Uni o'ziga xos doston-marsiya deb atash mumkin; asar ham marsiyaga mos mung, ham qahramonlik dostonlariga xos tantanovar ruh bilan yo'g'rilgan. Dostonda shaxsiy yo'nalish ijtimoiy ohang bilan tutashib, uyg'unlashib ketadi, birgina shaxsning tuyg'u va o'ylari ko'pchilikning tashvish kechinmalari darajasiga borib yetadi. Doston birgina lirik qahramonning, urush tufayli otadan yetim qolgan o'g'lonning emas, urush jabrini chekkan million-million kishilar qalbining mungi, nidosi, urushga nafrati, minnatdor avlodlarning og'ir jangda halok bo'lganlar xotirasi oldidagi qasamyodi kabi jaranglaydi.

«Nido»dan so'ng oradan o'n besh yil o'tib yozilgan «Ruhlar isyoni» dostoni shoirning o'sha paytga qadar bosib o'tgan ijodiy yo'lining eng baland cho'qqisi, o'ttiz yillik ijodiy izlanishlarning muayyan yakuni, dostonchilikdagi tajribalarining gultojidir.

«Ruhlar isyoni»-avvalo qahramonlik dostoni. Unda muallif asrimiz boshlarida chaqmoqdek yaraqlab, she'riyatda o'chmas iz qoldirgan, isyonkor she'rlari bilan butun Hindiston yarim orolini larzaga solgan, hayotini el-yurt erki, baxti yo'lga fido etgan otashin bengal shoiri Nazrul Islom jasoratini ulug'laydi. Ayni paytda, «Ruhlar isyoni»-fojeiy doston. Muallif isyonkor shoir kurashi, jasorati qanchalar qimmatga tushganini, shoir bilan davr va xalq orasidagi

murakkab, ziddiyotli munosabatlarni shoir qalbining orzu, alam-iztirob, tug'yonlarini butun keskinligi bilan ko'rsatadi. «Ruhlar isyoni»-falsafiy dostoni; muallif Nazrul Islom jasorati, fonetik qismati bahonasida shoirning, umuman ijodkorning hayotdagi o'rni, fuqarolik burchi, qolaversa hayotning boshqa xilma-xil muammolari ustida o'ylarga toladi.

«Ruhlar isyoni» shakl jihatidan ham o'ziga xos, novatirona asar. U xilma-xil she'riy shakllar, hissiy ohang, ranglar ham real hayotiy lavhalar, ham rivoyatlar, shartli-ramziy ifodalar rang-barangligidan tashkil topgan. Shu xildagi shakl va ifoda rang-barangligi asar zahirida yotgan hayotiy haqiqatni murakkabligi bilan ifodalashga xizmat qiladi, shoirning uzoq yillik dardlarini to'kib solishga imkon beradi.

Dostonda bosh qahramon Nazrul Islom hayoti xronologik tarzda izchil bayon etilmaydi, balki shoir hayotidagi eng muhim, keskin daqiqalari tanlab olinib, ular shoirona tahlildan o'tkaziladi. Shoirona tahlil paytida muallif hayollarga qanchalik erk bermasin, baribir, izchil tarixiylik printsiptiga amal qiladi. Nazrul Islomdek isyonkor shoirni etishtirib chiqargan tarixiy sharoitni, Nazrul Islom fojeasining tub ijtimoiy sabablarini tarixan haqqoniy ko'rsatishga, ochishga erishadi. Dostonda real hodisalar bilan yonma-yon keltirilgan xilma-xil rivoyatlar, tarixiy voqealar xuddi o'sha tarixiy-ijtimoiy hodisalar mohiyatini, umumbashariy ma'nosini chuqurroq anglashga, ulardan falsafiy xulosalar chiqarishga qaratilgan.

Doston haqsizlik va adolat, istibdod va erk orasidagi mangu kurashda iste'dodning o'rni haqidagi falsafiy mushohadalar bilan boshlandi; chin iste'dodning tabiati yaralishdan nohaqlikka, adolatsizlikka, istibdodga qarshi isyondir, deb sanaydi muallif:

Shoir yurak-

Pok tilagi,

Iymonidir basharning.

Armon to'la yurakdagi

Isyonidir basharning.

Armon to'la yurakdagi

Isyonidir basharning.

Nazrul Islom dunyoga shoir bo'lib, ya'ni davrining pok tilagi, iymoni, armon to'la yurakdagi isyoni bo'lib tug'ildi, muhtoj edi. Shoir ham tug'ulmasdan burun o'z yurtidan judo etilgan edi, el-yurt zobitlar oyog'i ostida toptalib yotibdi, jaholatda qolgan xalq zolim-zobitlarga qarshi turish o'rniga, hindu musulmonga ajralib, bir-birini qirish bilan ovora. Muallif Hindiston tarixining shu qora kunlarini alam bilan qalamga olar ekan, yana shoir va uning fuqarolik burchi haqidagi bahsga ko'chib deydi:

Har nechakim zo'r iste'dod,

Toshqin ilhom,

U nega

Xalqing yotsa chekib faryod,

Yaralasang kuniga,

Shoir esang,

Shoir bo'lib

Nega kelding hayotga,

Eling yotsa dardga to'lib,

Kelolmasang najotga?!

Ne shoirsan,

Tashbehlarning

Bormi asli keragi,

Bo'lmasa el g'ami-

Darding,

Yuraging –el yuragi?!

«Jaholat to'g'risidagi rivoyat»ni esa, dostonning kulminatsiyasi deb atash mumkin. Donishmand ulug' hakamning jaholat hukm surgan zamonda nashtar bilan ko'rning ko'zini ochishga jur'at qilishi, johil olomon tomonidan bunday jur'at makruh atalishi, hakimning sazoyi etilishi, gulxanda kuydirilishi, eng yomoni-xuddi o'sha o'z qo'lga shifo topib, ko'zi ochilgan chol tomonidan ta'na-

dashnom eshitishi, o'sha johil chol yoqqan olovda kuyib, kulga aylanishi – rivoyatda keltirilgan bu fojeiy voqealar va ular tufayli shoir qalbida kechgan o'ylar o'quvchi qalbini titroqqa soladi. Shu hayajonli rivoyat vositasida qahramon jasorati va fojeasi mohiyatini yana bir karra butun vujudimiz bilan idrok etamiz. Rivoyat shu bilan tugamaydi. Jaholat, zulm, adolatsizlik mangu emas, har qancha qarshilikka, zarbalarga duch kelmasin ezgu ish, adolat ertami-kechmi, baribir, yuzaga chiqadi. Boyagi fojiadan-donish mand olovda yondirilishi hodisasidan keyin shunday voqea ro'y beradi:

Shu olovdan

Elning, ajab,

Aql ko'zi ochildi.

O'kindilar,

Aza tutib

Yig'ladilar kuydilar.

Donishmandga

Yillar o'tib

Oltin haykal qo'ydilar...

Nazrul Islom qismati shu xil shafqatsiz haqiqatning bir ko'rinishi. Oradan yillar o'tdi, shoir vatani-Hindistonda katta o'zgarishlar sodir bo'ldi; mustamlakachilar yurtidan quvildi, Hindiston mustaqillik, tinchlik sevarlik, ijtimoiy taraqqiyot yo'lga tushib oldi, bir vaqtlar tahqirlangan, jabrlangan shoir hayotda o'rnini, qadrini topdi, el ardog'iga sazovor bo'ldi. Afsus, ming afsuski, u taziyya, hibs, qiynoqlar oqibatida hali o'ttiz beshga etmagan navqiron yoshida, ayni ijodi qaynagan paytda es-hushidan ayrilgan edi. Shu holda u qirq yil ardoqda yashadi.

Bu asar faqat qahramonlik dostoni, fojeiy doston, o'y-mushohadalar dostoni bo'lib qolmay, tarixiy saboqlar dostoni hamdir. U Nazrul Islomdek yorqin siymo, asl xalq farzandining shonli va achchiq qismatidan saboq chiqarib olishga chaqiriq bo'lib yangraydi.

«Istambul fojiyasi» davr to'zonlari, hayot chigalliklari ichra gangib, noxush, nomaqbul to'lqinlar iskanjasiga tushib qolgan, adashgan, ammo kechikib bo'lsa-

da, xatosini anglagan odamlar fojeasidir. Ushbu dostonda ham qahramonlar qismati zamonning muhim tarixiy –ijtimoiy voqea-hodisalari-ikkinchi jahon urushi, urushdan keyingi davrda dunyodagi keskin ziddiyatlar, mamlakatimiz ijtimoiy-ma'naviy hayotidagi muammolar bilan bog'liq holda talqin etiladi.

Asardagi uchta etakchi personaj –og'a Jalol, ini Iskandar, oradagi ayol Saodat-hammasi o'zgaruvchan xarakterlar, ular hayot yo'li-umrning turli bosqichlarida turli vazifalarda turlicha holda ko'rinadilar. Bahslar paytida muallif voqeaga bevosita aralashmaydi, kim haq, kim nohaq, asl haqiqat qaysi tomonda ekanini hushyor kitobxon sezib-bilib turadi. Xullas, bu asar muayyan adabiy-estetik tayyorgarligi bor, nozik didli, bilimdon kitobxonga mo'ljallab yozilgan.

Hayotda yo'l qo'yilgan xato sabablarini, tub mohiyatini, xato oqibatlarini anglab etish ham mardlik alomati.

Jalol shunday holatlarni boshidan kechiradi.

Xorijdagi inisi bilan uchrashuv Jalol uchun bir hayot imtihoni vazifasini o'taydi, Iskandar va Saodat tortishuvlari asnosida ko'p ikkilanishlar, ichki olishuvlar jarayonida u oxiri chin haqiqat, adolat yo'lini tanlaydi: shaxsiy hayotda yo'l qo'ygan xato, o'z jigariga qilgan adolatsizlik, bu adolatsizlikning dahshatini yurakdan his etish. Jalol uchun boshqa ayblarini –ijtimoiy faoliyatidagi gunohlarini anglab etishga yo'l ochadi. Uning endigi hayot falsafasi shunday:

Balki, inson umridan agar bir kuni muddat qolgan bo'lsa, o'sha muddatni poklanishga sarf etmog'i kerak. Ha, shunda nopok o'tgan-butun umr bir tush bo'laru o'sha bir kun hayot bo'lar. Chinakam hayot.

Shu tariqa, «Istanbul fijeasi» davrning ijtimoiy-ma'naviy muammolari-millat tanini har qanday g'uborlardan poklash g'oyasi, ijtimoiy adolat nuri bilan yo'g'rilgan asardir.

Erkin Vohidov ijodi ko'pdan beri ilmiy jamoatchilik, adabiy tanqidchilik e'tiborini o'ziga tortib keladi, uning she'r, doston, dramalari tevaragida qizg'in bahslar davom etadi; shoir ijodi, ayrim asarlari haqida O.Sharafiddinov, I.G'afurov singari etuk tanqidchilarning maqolalari, L.Qayumov bilan N.Shukurov qalamiga mansub adabiy portretlar mavjud.

Ma'lumki, Erkin Vohidovning o'zbek adabiyotida tutgan o'rin beqiyos shoir o'z she'rlari asarlari bilan keng kitobxonlar qalbidan chuqur joy olgan. Maktablarda adibning «O'zbekim» qasidasi, «Vatandin yaxshi yor bo'lmas» she'ri, «Nido» dostoni hamda hayoti va ijodini o'rganishga e'tibor berilgan.

Shoir Erkin Vohidovni Vatan, yoshlik, sevgi kuychisi deb atashadi. Uning «O'zbekim» qasidasi XX asr o'zbek she'riyatida yaratilgan Vatan haqidagi eng etuk madhiyalardan biridir. «Yoshlik devoni»dan joy olgan g'azallarida esa zamonaviy yoshlar qalbidagi sevgi, yoshlik tuyg'ulari nihoyatda jo'shqin, nafis, go'zal bir tarzda ifodasini topgan. Yoshligim g'azalni o'qib bunga ishonch hosil qilasiz. Shoir o'zbekim bilan barobar ona Vatan haqida yana ko'plab she'rlar bitgan. «Vatandan yaxshi yor bo'lmas» she'ri shulardan biri.

«Nido» dostoni urush mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, bosh qahramon yigirma yashar yigit ana shu hayot-mamot urushidan so'ng voyaga etgan yangi avlodning umumlashma obrazidir. Asar ana shu lirik qahramonning o'tli hayqirig'i bilan boshlanadi.

Nido dostonida ta'sirli va jozibador lirik parchalar ko'p.

Shuni qayd etish kerakki, Erkin Vohidov ijodi XX asr o'zbek adabiyotining eng katta va qimmatli yutuqlaridan biri sifatida 60-yillardan buyon adabiy tanqidchilik va adabiyotshunoslikning diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etib qilmoqda.

Tug'ma talant egasi Erkin Vohidov-tom ma'nodagi milliy shoir XX asr o'zbek she'riyatini bu shoir ijodisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shoirning ijodi qator davlat mukofotlari, unvonlari bilan taqdirlangan. E.Vohidov 1987-yili «O'zbekiston Xalq shoiri», 1999-yili «O'zbekiston Qahramoni» unvonlariga sazovor bo'lgan. 1997-yili «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlangan.

II BOB

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA ERKIN VOHIDOV ADABIY MEROSINI O'RGATISH USULLARI

Erkin Vohidov partiya qarorlarini qofiyaga solish she'riyat sanaladigan, baxtiyorlik haqidagi vaznli yolg'onlar erta-yu kech o'qilishiga quloqlar o'rganib qolgan davrda insonning chin tuyg'ularini ifodalaydigan she'rlar yaratdi. Shoir ularda o'z ko'ngli mavjlarini aks ettirardi. Qizig'i shundaki, E.Vohidovning ko'ngil holatlari millatning ko'pchiliginikiga esh bo'lib chiqdi. Uning dardiyu iztiroblari hamisha xalqining g'am-u tashvishlari bilan qo'shilib keldi. Shoir asarlarida samimiyat va badiiyat ustuvor bo'lgani uchun ham uning bitiklari kishi tuyg'ulariga kuchli ta'sir ko'rsatib, yodda uzoq saqlanadi.

Erkin Vohidov kabi chinakam iste'dod egalarining hayoti va ijodidan namunalar umumta'lim maktablarida ikki sababga ko'ra o'rganiladi. Birinchidan, bunday insonlarning hayot yo'lidan yoshlar o'rnak olishadi. Ikkinchidan, ular bitgan asarlar millat yoshlari ma'naviyatini shakllantirishga asos bo'ladi. Shu bois ham o'rta umumta'lim maktablarida O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov hayoti va ijodini o'rgatishga salmoqli o'rin ajratilgan. Mashhur adib asarlarini umumta'lim maktablarining beshinchi, oltinchi va o'n birinchi sinflarida o'rgatish ko'zda tutilgan.

Jumladan, beshinchi sinf «Adabiyot» dasturida¹ bu taniqli shoirning «O'zbekim» qasidasini o'rgatish uchun ikki soat vaqt ajratilgan. «Adabiyot» darsligida shoirning hayot yo'li haqida qisqacha ma'lumot ham berilgan. Lekin o'qituvchi darslikda mavjud bo'lgan ma'lumotlarni bolalarga o'rgatish uchun vaqt sarflamasligi kerak. Chunki beshinchi sinfda o'qiyotgan o'smir uchun shoir hayotiga doir ma'lumotlarni o'zlashtirish shunchaki muhim emas. Bu ma'lumotlar bilan o'quvchilar mustaqil ravishda tanishishi va ularni o'zlashtirib olishi mumkin, lekin bu topshiriq majburiy emas, balki ixtiyoriy bo'lishi lozim.

«O‘zbekim» qasidasini ifodali o‘qish uchun o‘qituvchi birinchi darsning 15-16 daqiqasini sariflaydi. Agar muallim asarni yoddan aytib bersa, uning ta’sir kuchi ortadi va tahlil qilish osonlashadi. She’rni o‘qish jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarga darslikdan asar matnining murakkab o‘rinlarini belgilab borishni tayinlagani ma’qul. O‘qituvchi darsga tayyorlanish jarayonida bunday o‘rinlarni o‘zi uchun ajratib qo‘ygan bo‘ladi. Qiyin so‘zlarni o‘quvchilarning o‘zlari she’r bilan tanishish mobaynida belgilab borishi ularni matn ustida faol ishlashga undaydi. Jumladan, qasidadagi quyidagi so‘zlar ajratib ko‘rsatilishi mumkin:

*Tarixingdir ming asrlar ichra pinhon o‘zbekim,
Senga tengdosh Pomiru oqsoch Tiyonshon, o‘zbekim.
So‘ylasin **Afrosiyob-u** so‘ylasin **O‘rxun** xati,
Ko‘hna tarix shodasida bitta marjon, o‘zbekim.
Al Beruniy, Al Xorazmiy, Al Forob avlodidan,
Asli nasli balki **O‘duk**, balki **Tarxon**, o‘zbekim,*

Samarqandga asos bo‘lgan qadimgi Afrosiyob shahri, turkiy xalqlarning o‘z yozuvlari bo‘lmish o‘rxun xati, xalqimizning eng qadimiy elatlaridan bo‘lmish o‘z (o‘zluk)lar, turkiy xalqlarning imtiyozli qatlami bo‘lmish tarxonlar haqida berilgan qo‘shimcha ma’lumotlar o‘quvchilar ko‘nglida iftixor tuyg‘ularini uyg‘otadi. Lekin o‘qituvchi «O‘zbekim»ning shonli tariximiz to‘g‘risidagi ma’lumotnoma emas, balki millatning g‘ururi samimiy aks ettirilgan badiiy asar ekanligini nazardan qochirmasligi zarur.

Shu bois, o‘quvchilar e’tibori shoir xalqning qadimiy tarixini ta’kidlash bilangina kifoyalanmay, uning hayot yo‘li, aslida, mustaqillik uchun kurash yo‘li bo‘lganini aks ettirganiga tortilishi kerak: «*Qaysari Rum nayzasidan bag‘rida dog‘ uzra dog‘, Chingiz-u Botu tig‘iga ko‘ksi qalqon, o‘zbekim*». Bolalar diqqati shoir millatni faqat jabrdiydagina qilib ko‘rsatmay, undagi kurashchanlik, bo‘ysunmaslik tuyg‘ularini ham quyidagicha ifodalaganiga qaratilishi lozim:

*Davr zulmiga va lekin bir umr bosh egmading,
Sen-Muqanna, sarbador-sen, erksevar qon, o‘zbekim.*

Shoir o'z millatining tarixi g'oyat qadimiy ekanligini qayd etibgina qolmay, uni abadiylashtirish lozim-u, ammo mushkul ekanini, chunki xalqning hayoti o'zlikni anglash uchun kurash yo'lidan iboratligini quyidagi yo'sinda aks ettiradi:

Tarixing bitmakka, xalqim, mingta Firdavsiy kerak,

Chunki bir bor chekkan ohing mingta doston, o'zbekim.

«O'zbekim» she'rining yuksak badiiy xususiyatlaridan tashqari, ulkan ijtimoiy-siyosiy himmat kasb etganligi, zamonaviy o'zbekning ma'naviyatini qaror topdirishdagi ahamiyati shundaki, xalqlarni o'zligidan ayirish davlat siyosatiga aylangan sho'rolar zamonida shoir o'z millati daholaridan faxrlanishini ochiq bildirgan:

Menga Pushkin bir jahon-u menga Bayron bir jahon,

Lek Navoiydek bobom bor, ko'ksim osmon, o'zbekim.

O'qituvchi o'quvchilar e'tiborini shoirning o'z millatini boshqa xalqlarga qarshi qo'ymayotganligi, ayni vaqtda, o'zbekning ezgu sifatlari bilan faxrlanayotganiga tortishi kerak. Odamga o'z onasini sevis, o'zi turgan joyni yaxshi ko'rish singari, o'z xalqi bilan g'ururlanish ham tabiiy ekanini o'quvchilar anglab yetishlari zarur. Har bir misraning ma'nosi sharhlanishi bilan birga, uning poetik jozibasini ta'min etgan omillarning o'quvchilar tomonidan payqab yetilishiga erishish muhimdir. O'quvchi qasidani to'liq anglashi va undan ta'sirlanishi uchun matnda unga tushunarsiz biror so'z qolmasligi kerak.

So'ng o'qituvchi va o'quvchilar birgalikda savol-topshiriqlar ustida ishlashlari kerak bo'ladi. Buning uchun she'rdagi «*Ilmu she'rda shoh-u sulton, lek taqdiriga qui, o 'z elida chekdi g'urbat, zor-u nolon o 'zbekim*» satrlari zamiridagi ma'noni aniqlashga harakat qiling» tarzida topshiriq berish mumkin. Bu o'quvchilarni millatning uzoq va yaqin o'tmishi haqida bilganlarini xotirlashga undaydi. Ular «*taqdiriga qullih*» deganda nimalarni tushunganlarini, o'z elida g'urbat chekish, zoru nolonlik qanday bo'lgani ustida o'ylab ko'rishadi, bilganlarini so'zlab berishadi. Bilmaganlarini esa uyda kattalardan so'rab olishni maslahat berish ham mumkin. Shuningdek, o'smirlarga «*Qasidaning: «Yig'ladi furqatda Furqat ham muqimlikda Muqim, Nolishingdan Hind-u Afg'on qildi afg'on, o'zbekim*»

satrlaridagi soʻz oʻyinlariga eʼtibor qiling, «*furqat*», «*muqim*», «*afgʻon*» soʻzlarining oʻz va badiiy maʼnolari haqida oʻylab koʻring» degan topshiriq berib, oʻquvchilar eʼtibori «*furqatda Furqat*», «*muqimlikda Muqim*» birikmalariga tortiladi. Oʻquvchilarning diqqati oʻzbekning nolishiyu unga «*Hind-u Afgʻon qildi afgʻon*» ekani orasidagi bogʻliqlikni topishga yoʻnaltirilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Oʻquvchilar eʼtibori asar yuzasidan berish mumkin boʻlgan: «*Qasidadagi: «Koʻkragida togʻ koʻtargan tanti dehqon oʻzbekim» satri zamiriga yashiringan badiiy maʼnoni kashf etishga mining»* topshirigʻidagi tanti dehqon koʻtargan togʻ va uning oʻzbeklar taqdiriga nechogʻli daxldorligiga tortiladi. Oʻquvchilar bu obrazlar zamirida paxtadan togʻ-togʻ xirmon uygan oʻzbek dehqonini ham, koʻksida togʻday gʻamlarni koʻtarib yashagan mazlum xalqni ham tasavvur etishlari mumkin.

«*Men buyuk yurt oʻgʻlidurman, men bashar farzandiman, lekin avval senga boʻlsam sodiq oʻgʻlon, oʻzbekim»* misralari zamiridagi tagmaʼno haqida soʻzlang» degan topshiriq ham oʻquvchilarni oʻylantiradi. Misralardagi har bir timsolning maʼnosi haqida ularning fikri aniqlanadi.

Erkin Vohidovning «Nido» dostoni oʻrta maktabning oltinchi sinfida oʻrgatiladi. Bu sinfda avvalo muallifning tarjimai holiga bir oz toʻxtalish kerak boʻladi, chunki ayni shu asar qahramoni kechmishlari ifodasi bi-lan uning mualliffi taqdirida ajib bir umumiylik bor. Oʻqituvchining adib hayoti va ijodi yuzasidan oʻzi tuzgan savollarni oʻquvchilarga berib, topshiriqlarni bajartirishi asarning yaxshi oʻzlashtirilishini taʼminlaydi. Savollarga asosli va mantiqli javob qaytargan oʻquvchilarga alohida eʼtibor qaratish kerak, toki, boshqa oʻsmirlar ham mantiqli mushohada yuritishga, oʻz fikrlarini chuqurroq asoslashga, chiroyli, loʻnda ifodalashga intilsinlar.

Oʻzbek xalqining sevimli shoiri Erkin Vohidovning nomi 6-sinf oʻquvchilariga avvaldan tanish. Ular shoirning ayrim sheʼrlarini oʻqiganlar, televideniya va radiodan shoirning oʻzi oʻqigan sheʼrlarini tinglaganlar. Erkin Vohidovning «Nido» dostonini oʻrganish orqali shoir ijodi haqida, uning bolaligi haqida bir muncha keng

tasavvurga ega bo'ladilar. Shoir o'z dostonida uncha uzoq bo'lmagan o'tmishni, tarixda mudhish iz qoldirgan Ikkinchi jahon urushining asoratlarini bola tasavvurida tasvirlaydi. Shuning barobarida u bolalikka hayotdagi eng go'zal bir davr sifatida oddiygina qaramaydi. Uning qahramoni urush yillarida bolaligi kechgan, otalaridan, akalaridan judo bo'lgan o'z tengdoshlari bilan birga bir safda boradi. Bu iztiroblar, u guvoh bo'lgan tarix, faqat uning iztirobi, tarixi bo'lmay, balki xalqimizning front ortidagi qiyinchiliklardan iborat o'lmishidir.¹

Erkin Vohidov o'z bolalik xotiralarini haqida shunday yozadi: «Otam frontda ekanida, onam qishloq Sovetida sekretar vazifasida ishlar, qiyinchilik bilah kun kechirar edik. Jo'xori poyasini shimib tilimni qonatganim, bolalarga qo'shilib kunjara yega-nimda onam yuzimga shapaloq urgani va o'zi kechgacha yig'laganini unutmayman. O'ylab qarasam, bolalik xotiralarimning ko'pchiligi she'rlarga, dostonlarga ko'chgan ekan». Garchi mazkur xotiralar shoirning tarjimai holida keltirilgan bo'lsada, «Nido» dostonining epigrafidek bo'lib tuyuladi va dostonni o'quvchilar teran tushunishlari uchun yetakchi fikr sifatida ham muhim o'rin tutadi. Dostonda ishtirok etuvchi bola o'zining yosh bo'lishiga qaramay, katta hayot tajribasiga ega bo'lgan asosiy qahramon sifatida voqealarni bayon etadi.

O'qituvchi o'zining kirish so'zida Erkin Vohidovning Toshkentda kechgan bolalik va o'smirlik yillarining eng yorqin esdaliklari, shoir G'ayratiiy tashkil etgan to'garak mashg'ulotlari haqida so'zlab berishi lozim, shuningdek, g'oyat olijanob hamda atroflicha bilimdon tog'asining xonadonida bo'lib turadigan adabiy suhbatlar bilan bog'liqligi haqidagi ma'lumot-lar bilan o'quvchilarni tanishtirish maqsadga muvofiqdir.

Erkin Vohidovning «Quyosh maskani» dostoni, «Bolalik», «Oqsoqol», «Bolalik ekanda» she'rlari murg'ak tasavvur, ilk xotiralarining mevasi ekanligini ham aytib o'tish shoir ijodini o'rganishda katta yordam beradi².

Erkin Vohidov bolaligidanoq, o'zbek adabiyoti tarixini, jahon adabiyotini, o'z zamondoshlarining asarlarini qunt bilan o'rganib, ulardan ijodiy bahra olgan

¹ B. Turdiyev. 4—7-sinflarda ifodali o'qish. Toshkent, «O'qituvchi», 1978, 16—17-betlar

² S. Inomxojayev, L. Zunnunov. Ifodali o'qish asoslari, Toshkent, «O'qituvchi», 1978.

shoirdir. Uning ijodi elliginchi yillardan boshlanadi. Shundan so'ng, o'qituvchi shoirning she'riy to'plamlari haqida, o'zbek adabiyotining rivojida qo'shgan hissasi haqidagi qisqa kirish mashg'ulotidan so'ng shoirning «Nido» dostonini o'rganish mashg'ulotiga o'tadi.

Ma'lumki, doston liro-epik turga mansub bo'lib, asarning o'quvchilar ongiga to'liq yetib borishi uchun doston maromiga yetkazib ifodali o'qilishi lozim. Ifodali o'qish jarayonida o'qituvchi doston matnining mohiyatini tushunib o'qilishini, yorqin talaffuzini, yoqimli ohangini o'quvchilarda his-hayajon, fikr-mushohadani uyg'otishini nazorat qilib bormog'i lozim, chunki ifodali o'qish hayot va uning kurash qonunlarini bilib olishning bebaho manbadir.

Tajribada ifodali o'qishni asosan o'qituvchi ham she'rxon, ham ijrochi sifatida bajarib kelgan. Chunki E. Vohidovning «Nido» dostoni saralangan so'z san'atidan iborat bo'lib, kuchli ehtiros bilan yozilgan. Undan tashqari, chuqur, teran mazmunga, yuksak badiiy mahoratga ega asardir. Eng muhimi, hayotiy voqelik asosida yaratilgan bo'lib, uning tarkibiy, o'ziga xos xususiyatini o'quvchilarga ochib berishga to'g'ri keladi. Doston ifodali o'qilishidan oldin uning qo'shma (murakkab) vaznli she'rlar turiga kirishini. barmoq vaznida yozilganligini, misralarning bo'g'inlari soni turlicha bo'lganligi bilan boshqa dostonlardan ajralib turishini o'quvchilarga tushuntirib bermog'i lozim.

Dostonda hijolarning turlicha tuzilishi natijasida vaznlarda ham turlicha bo'lgan misralar uchraydi. Masalan:

*Hayqiraman,
Tog'lar bag'ridan
Gumbirlagan sado keladi,
Ona yerning otash qa'ridan
«O'glim!» degan nido keladi.
«O'g'lim!»*

O'qituvchi doston ifodali o'qilishi jarayonida ma'lum maqsadni belgilab olmog'i lozim. Dostonda boshlang'ich sinf o'quvchisining frontdagi otasiga xati keltirilgan parcha bor. Bola yoshligidayoq urushning jafolarini ko'radi, o'lim nima

ekanligini tushunib yetadi. Shuning uchun ham otasiga eson-omon qaytib keling, deb iltijo qiladi. Bu davrda u urushdan salomat qaytish otasining izmida emasligini bilmaydi. Bu manzara g'oyat qayg'uli.¹

Dadajon!
Sizga o'q tegmasin hecham,
Men uchun ham tezroq qayting salomat,
Buvim aytgan,
Agar men tilak qilsam,
Tilagim bo'larmish doim ijobat.
Rost aytaman,
Sizni juda sog'indim,
Sog'indim ikkala ko'zim bilan teng,
Kelib qolasizmi, ertami-indin?
Kutaman,
Dadajon,
albatta keling.

Ushbu dostonni ifodali o'qishda o'qituvchi o'z oldiga tinglovchida urushga qarshi kurash, nafrat hissini o'stirishni asosiy maqsad qilib qo'yadi. Yoki, doston ruhini, qahramonlarning ruhiy kechinmalarini, so'ngra holatini topib olishi, shu holatga kirishga harakat qilishi lozim. Masalan, dostonning muqaddimasida keltirilgan misralarda dushmanga qarshi kurashda jonini fido qilayotgan otaning nidosini xitob, so'zlarini tinglayotgan, u bilan ruhan so'zlashayotgan o'g'ilning ruhiy holati berilgan. Shunga ko'ra, mazkur parchani ifodali o'qiyotgan o'qituvchi ham, tinglayotgan o'quvchi ham o' sha holatni his etmog' i lozim. Chunki bu holat doston muallifining ruhiy holati tufayli yuzaga kelgan.

Dostonning ifodali o'qilishida, boshqa she'riy asarlarga xos bo'lmagan ba'zi jihatlar, ya'ni goh salobatli, goh tantanavor, goh quvnoq yoki mayin, goh mungli va ma'yus ohanglar o'quvchilarning e'tiborini tortadi. Uning har bir misrasida nido sasi kelib turadi. Unda urishga qarshi da'vat bor. Shoir o'z da'vatini jonli voqea-

¹ S.Inomxo'jayev. A. Zunnunov. Ifodali o'qish asoslari. Toshkent, «O'qituvchi», 1978, 44-bet

manzaralar ichigayashiradi... kezi kelsa «urush-urush o'yin» qilib «ko'k-u zaminni» titratgan «dunyoda rostakam o'lim borligi»dan bexabar bolalarning beozor, sho'x kechgan kunlariga mantiqan singdirib yuboradi.

Ko'cha-ko'yda ko'tarib suron
Yuguramiz sahardan to kech,
Olam uzra kezar zo'r bo'ron,
Biz bu haqda o'ylanaymiz hech.
«Urush-urush» o'yin bo'lsa bas.
Titratamiz ko'k-u zaminni.
Kim o'ylabdi deysiz u nafas
Bu urushning rostakamini.

Go'dak qalbidagi titroq va nola, isitma aralash alahsirashlar o'quvchilarga tanish manzaralar bo'lib, ular bu holatni qalbdan his qiladilar. Dag'al, qo'pol etiklarning gurs-gurs odimlaridan yerning ingrayotganini, xayol va tush oralig'ida uyg'ongan bolakayni onasining erkalashlarini o'quvchilar tushunadilar va his qiladilar.

*Qadamlar,
Qadamlar,
Og'ir qadamlar...
Etiklar zarbidan titraydi tuproq.
Qayerga ketmoqda shuncha odamlar?
Dada!!!
Ovozim hech chiqmaydi biroq –
Yuguraman - ortga ketar qadamlar,
Yig'layman - ko'zimga kelmaydi namlar,
M urg'ak vujudimda faqat zo'r titroq!
Bo'g'zimda alamlar,
Achchiqalamlar,
Yo'lning o'rtasida turibman.
Shu choq –*

*Poyezd qichqiradi,
To'xtang odamlar!
Qayga ketmoqdasiz?
Qani dadamlar?!
Tepamda yonadi zangori chiroq...
Cho'chib uyg'onaman,
Onam qoshimda
Mehribon qo'llari
Otash boshimda.*

Yoki, bolaning otasiga yozgan sog'inch xatining tahlili jarayonida xat muallifiga hamdard bo'ladilar. Ular poyezdning o'tkir ovozi, bolaning «dada» degan alamli chinqirig'idan hayajonga tushadilar. Xulosa qilib aytganda, Erkin Vohidovning «Nido» dostonidagi asosiy natija-oqibatni ifodalash, ya'ni otaning halok bolishi va bu tufayli farzand qalbida tug'ilgan tug'yonni ifodalash orqali, hozirgi avlodga urushning oqibatlarini anglatish, bugungi tinch, osuda kunlarning qadriga yetish, o'z yurtini, o'z tuprog'ini sevish kabi insoniy tuyg'ularni tarbiyalashda muhim ahamiyatga egadir¹.

Mashg'ulot so'ngida esa, o'qituvchi doston (poema) haqida ma'lumot berishi maqsadga muvofiqdir. Chunki Erkin Vohidovning «Nido» dostoni poema deb ham yuritiladi. Doston (poema)da - turmush voqealari epik bayon bilan lirik ifoda birga qo'shilgan holda tasvirlanadi. Shuningdek, she'riy shakldagi katta hajmli rivoyaviy asardir. Dostonning o'ziga xos xususiyati, bayon qilinayotgan voqeani lirik qahramon munosabati orqali ifodalashdan iboratdir. Nasriy epik asarlarga qaraganda dostonda syujet ixcham bo'lib, aniq dramatik holatlarga, hayajonli holatlarga boy bo'ladi. Erkin Vohidov dostonchilikning ana shu turini yaratish orqali, milliylik, an'anaviylikni davom ettirdi. Adabiy-nazariy ma'lumotlarni o'quvchilar to'liq anglab olishlari uchun, shoirning «Nido» dostonidan misollar keltirish bilan darsni yakunlash mumkin. Mashg'ulot so'ngida doston dan parchalarni yod olishni uyga vazifa qilib topshirmoq lozim. Ma'lumki, doston katta hajmni tashkil etganligi tufayli, o'quvchilarning o'zlariga ma'qul parchalarni yod

olish imkonini berish lozim. Chunki doston o'quvchilarning yosh xususiyatiga mos keladi, uni yod olish tabiiy ehtiyoji, ma'naviy talabidan kelib chiqadi. Ayrim o'quvchilar dostonni yod olmasliklari mumkin². Ammo yod olgan o'quvchilarni tinglash ham, doston g'oyasini tushuntirishlari uchun katta yordam beradi.

O'quv dasturida «Nido» dostonini o'rgatish uchun uch soat vaqt ajratilgan. Bu darslarda o'qituvchi har bir dars oldiga to'g'ri maqsadlar qo'ya olgandagina yaxshi natijaga erishishi mumkin. Bizningcha, «Nido» dostonini o'rgatish bo'yicha o'tiladigan birinchi mashg'ulotning tarbiyaviy maqsadi «*Doston matni orqali o'quvchilarda ajdodlar oldida qarzdorlik tuyg'usini shakllantirish*» bo'lgani ma'qul. Bunda maqsad o'quvchilar ongiga bugungi hayot uchun kimlardir jonidan kechib kurashganligi, bugun yashayotganlar o'shalar oldida burchli ekanligini singdirishdan iborat bo'ladi. O'quvchilarni doston matni bilan tanishtirishni *ta'limiy maqsad* sifatida belgilash mumkin. *Rivojlantirish maqsadi* tarzida esa «*O'smirlarda olam va odam uchun javobgarlik tuyg'usini qaror toptirish*» belgilansa, maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qituvchi mashg'ulot davomida barcha qo'llangan usullarni shu uch maqsadga erishishga yo'naltirishi taqozo etiladi. Chunki darsning yuqoridagi maqsadlariga erishgandagina o'qituvchi o'quvchilarda o'zi mo'ljallagan axloqiy-ma'naviy va intellektual-ruhiy sifatlarni shakllantirishi mumkin.

O'qituvchi dostonning darslikdagi matnini o'quvchilarga to'liq o'qib berishi uchun 40 daqiqa lozim bo'ladi. Adabiyot muallimi darsga tayyorlanish jarayonida dostonni o'qib chiqishi, alohida urg'u beriladigan o'rinlarni o'zi uchun aniqlab olishi, asarning qayerini qanday ohangda o'qish maqsadga muvofiqligini belgilab qo'yishi zarur.

Doston *urush* atalmish baloning dahshatlari, insonning armonu tuyg'ulari, murg'ak qalbning iztiroblari ifodasi sifatida yuzaga kelgan. O'qituvchi asarni o'qiyotganda ana shu dard, iztirob va dahshatlarni o'quvchilarga his ettira olishi kerak. Buning uchun adabiyot muallimi o'quvchilarda uyg'onajak tuyg'ularni avval o'zida uyg'ota bilishi zarur. U shoir sezimlarini o'ziga ko'chirgandagina o'z «dard»ini o'quvchilarga yuqtira oladi. Adabiyot o'qituvchisining qay darajada

ta'sirchanligi, hissiyot olamining bokiraligi, ma'naviyatining go'zalligi shunday o'rinlarda yaqqol seziladi. U qanchalar samimiy bo'lsa, o'z tuyg'ularini chiroyli va yorqin ifodalay bilsa, o'quvchilarning tuyg'ulari ham noziklashib, hissiyotlari tiniqlashadi.

«Nido» singari yoniq qalb harorati bilan yozilgan she'riy bitiklarni o'quvchilarning hissiyotlari sovumasdan yaxlit holda idrok etishi kutilgan pedagogik samarani beradi. Buning uchun maktab ma'muriyati bilan kelishib, doston o'rganilishi lozim bo'lgan uch soatning ikkitasini juftlashtirish lozim. Shundagina avval o'tilgan darslarni so'rashga ham, «Nido»ning matni bilan to'liq tanishib chiqib, tahlilga kirishishga ham ulguriladi. Agar buning imkoni bo'lmasa, doston matnini taxminiy ikki qismga bo'lib o'qib chiqish va tahlilga kirishish mumkin. Dastlabki ikki soatda doston matni bilan o'smirlarni tanishtirgan o'qituvchi savol-topshiriqlar ustida ishlashni boshlab qo'yib, to'liq tahlilni oxirgi darsga qoldirishi ham mumkin. Har qanday holda ham doston matni bilan tanishishni uch darsga cho'zib yurmagan ma'qul. Aks holda, asarni o'qish jarayonida o'quvchilarda uyg'ongan tuyg'ular mavji bosilib, hissiyotlar sovub, matndan bir qadar uzoqlashib qolish mumkin. Har holda doston ustidagi ish o'quvchilarning bilimi, ularning tahlil ko'nikmalari qay darajada ekanligiga qarab olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

«Nido» dostonida ikkinchi jahon urushi tufayli otasiz qolib, tani-yu qalbi ozor chekkan millionlab ma'sum go'daklar chekkan ojiz va chorasiz fig'onlar bir norasida bola timsolida aks ettirilgan. Begunoh bolakay tilidan bayon etilgan asarda millionlab yetimlar, bevaqt qora yer qa'riga kirgan urush qurbonlari, beva qolgan baxtsiz kelinchaklar, farzand dog'ida kuygan sho'rpesiona ota-onalar, tug'ilgan-u, kun ko'rolmagan va tug'ilmay qolib ketgan baxti qaro go'daklar nidosi birlashib, yigirmanchi asrning buyuk nidosiga aylanadi. Bu nido o'quvchining asl insoniy tuyg'ular mohiyatini teranroq anglashiga, har bir odamning g'amiga o'zi ham daxldor ekanini chuqurroq his etishiga yordam beradi. O'qituvchi shu o'rinda o'quvchilar e'tiborini nima uchun yigirmanchi asrga urg'u berilayotganiga qaratishi joiz, chunki birgina ushbu asrda ikki bor jahon urushi

bo'lib o'tgani va bu urushlarda yuzlab yoki minglab emas, balki millionlab odamlar halok bo'lgan. Albatta, o'quvchilar shu sinfda o'qishgan «Jahon tarixi», «O'zbekiston tarixi» o'quv predmetlari orqali bu urush haqida tegishli ma'lumotlarga egalar, o'qituvchi ana shu ma'lumotlarning «Nido» dostoniga taalluqli jihatiga e'tiborni tortsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tahlilni samarali amalga oshirish uchun o'qituvchi dostonning imkon qadar ko'p qismini yoddan bilishi lozim, chunki o'quvchi e'tibori tortilishi lozim bo'lgan o'rinlar yoddan keltirilsa, tahlilning ta'sir kuchi ortadi, so'zning jozibasi o'quvchi yuragiga chuqurroq kirib boradi.

Tahlil dostonning dastlabki misralari bo'lmish: *Hayqiraman, tog'lar ortidan Gumburlagan sado keladi. Ona yerning otash qa'ridan «O'g'lim!» degan nido keladi*, -satrlarining aytilishi bilan boshlanadi. O'quvchilardan shu dostonni yoza-yotganida avji yigit yoshida bo'lgan shoir nega va nima deb hayqirishi mumkinligi, gumburlagan sado ne bois tog'lar ortidan kelayotgani haqida fikr so'raladi. Doston matniga qat'iy suyangan holda ulardan taxminan shu taxlit javob olinishi mumkin: *insonga xos bo'lgan eng kuchli tuyg'ulardan biri - sog'inch. Bu tuyg'u har birimizga qandaydir darajada tanish. Odam sog'ingan, qo'msagan narsasiga ertadir-kechdir erishishiga ishonsa tuzuk, lekin sog'inganini ko'rish imkonsizligini bilsa-chi?* O'quvchilar asar qahramoni holatini tasavvur qilishga urinishlari kerak. Doston qahramoni otasini juda-juda sog'ingan. Axir ko'rmaganiga yigirma yil bo'lgan. Lekin uni ko'rishning aslo iloji yo'q, chunki otasidan qora xat kelgan. Qahramon tiyiqsiz sog'inchdan o'zini ovutish yo'llarini qidiradi. Najotni esa tabiat bag'ridan topganday bo'ladi. Chunki inson ruhan tabiatga oshno. Shu bois ham doston qahramonining tog'lar qo'yniga otlanishi tabiiy. Shu yerda u o'zi va xayoli bilan yolg'iz qolish imkoniga ega. Xayolida esa faqat shahid ketgan ota. Uning qalbidagi adadsiz sog'inch, bo'g'zidan otilib chiqishga tayyor ichki xo'rsiniq butun vujudini, ruhiy olamini qamrab olgan. Shu sabab uning ingrog'i ham hayqiriqday jaranglaydi va tog'lardan aks-sado keladi. O'quvchilar «O'g'lim» degan nidoning kelishi realmi yoki xayoliy ekanligini bu nidoning yer qa'ridan kelgani sababini izohlashlari lozim. Ota urushda halok

bo'lgan, ya'ni yer bag'ridan joy olgan, lekin uning ruhi - tirik. O'g'li uni doim o'ylaydi, izlaydi. Shu bois o'g'ilning hayqirig'iga yer javob berganday tuyulishida mantiq bor.

Asardagi o'g'ilning otaga murojaati tasvirini o'qituvchi qayta o'qib bergani ma'qul. U shunday o'qilishi kerakki, hayajonning zo'ridan tomoqqa tiqilgan yig'i ovozni titratsin, buni bekitishga urinmaslik kerak. O'qituvchining hayajoni, iztiroblari, dardi bolalarni befarq qoldirmaydi. Ular yigirma yil otasini ko'rmagan o'g'il holatini muallim sezimlaridagi junbush orqali aniqroq his qiladilar, ko'ngillarida hamdardlik, achinish hissi paydo bo'lishi tabiiy. Shunda dostonning shoir yurak qoni bilan bitilgani, qalb o'rtanishi, so'ngsiz armon ifodasi ekani shunchaki gap emasligini anglaydilar. O'quvchilar o'qituvchining ovozini titratgan, ko'ngilda hamdardlik, achinish hislarini uyg'otgan narsa mana shu tuyg'ular ekanini tuyadilar. Qahramonning sog'inch-u iztiroblari, pinhoni o'rtanishlari, chek-chegarasiz armonlari, ko'ngil dardlari ularga shu tariqa yuqadi. Ayni vaqtda, o'qituvchi e'tiborida dostonni o'qish, qahramon holatini berish sahna tomoshasiga aylanib ketmasligi, unda chuchmal sentimentallik ustun bo'lmasligi lozim. Shoir tuyg'ulari quyidagi avj nuqtada ifoda etilgan:

*Yuragimni yoqar o'tli iztirob,
Ammo ko'zlarimda bir tomchi yosh yo'q.
Bag'rim o'yib, Bu kun menga bermoqda azob
Sizning ko'ksingizni teshgan qora o'q.
Silqib oqayotir ko'kragimdan qon.
Qalbim o'rtanmoqda, so'ngsiz armonim...
Yurak qonim o'lan bitgan dostonim
Sizga bag'ishladim,
Otajon!*

satrlarida avlodlar o'rtasidagi bog'liqlik, otalar tortgan azob bolalar ko'nglida og'riq uyg'otishi mumkinligi o'zining go'zal ifodasini topgan. O'quvchilarga otaning ko'ksini teshgan o'qdan yaralangan o'g'il tuyg'ulari qanchalik samimiy va chin ekanligi mana shu misralarga tayangan holda ko'rsatiladi. Shunda o'smirlar

«ko'kragidan qon silqib oqayotgan» shoirning dardlarini o'zlarinikiday qabul etishadi.

Dostonning ikkinchi qismi olti yoshli bolakayning tilidan bayon etiladi. Bu qismda tasvirlangan qishloq ko'chasidan yugurayotgan «zanjiday qaro» bolalik bilan tuproqni titratayotgan og'ir qadamlar o'rtasidagi muvoziylikka o'smirlar diqqati tortilishi kerak:

*Xayolning tumanli pardasi ham
Yillar ko'z oldimda charx urayotir,
Qishloq ko'chasidan zanjiday qaro
Olov bolaligim yugurayotir...
Qadamlar, qadamlar, og'ir qadamlar...
Etiklar zarbidan titraydi tuproq.
Qayerga ketmoqda shuncha odamlar?
Nahotki yo'llari shunchalar yiroq?
Ana, ko'ryapsanmi? Mening dadamlar,
Dada... Ovozim hech chiqmaydi biroq.
Yuguraman - ortga ketar qadamlar,
Yig'layman - ko'zimga kelmaydi namlar.
Murg'ak vujudimda faqat zo'r titroq,*

Bo'g'zimda alamlar, achchiq alamlar. Asardagi onaning so'zlari esa alohida o'qib berilgani ma'qul. Har bir onaning ko'nglidan eng erka, eng aziz so'zlar bolasini yupatish uchun chiqadi. Bolasining oromi, xotirjamligi - onalarning oliy tilagi. Otani jangga kirishga undagan kuchlar: hayot, erk, kelajak, «*Butun Yer - undagi bor avlod*» ekanini ona yaxshi tushunadi va bolasiga ham buni uqtiradi. Bu o'rinda ona o'g'liga otasining asl sifatlarini kashf qilishda ko'mak berayotganligi, otaning joni evaziga erishilgan ne'matlar qadri qanchalar baland ekanini bola ruhiyatiga singdirganligiga diqqat qaratiladi. Onaning o'g'liga qilgan: «*Sizlarga qoladi muqaddas zamin. Sizlar uni avaylab kaftda tutasiz. Sharaf yo'llaridan olib o'tasiz*» tarzidagi o'g'itlari yana kimlarga qaratilganligini o'quvchilarning o'zlari

topishlari kerak. O'quvchilar nazaridan onaning gaplari ifodalangan o'rinlar mayda detallarigacha o'tkazilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bolaning onasi qo'ynini to'ldirgan savollari tasvirlangan o'rinlar dostondan qayta o'qib berilgani ma'qul. Asardagi bu joylar bolalarga xos samimiy erkalik bilan o'qilishi kerak, toki o'quvchilar murg'ak inson holatini to'liq his qilsinlar. Chunki sinfdagi o'quvchilarning ko'pchiligi ayriliq nimaligini tuymaganlar. Ular ota-onalarining bag'rida, mehr-muhabbat qurshovida katta bo'lishmoqda. Shu mehr-muhabbatni qadrlay bilish uchun ham asar qahramonining kechinmalari ko'ngildan chuqur his qilinishi kerak.

Har bir o'g'il bola «urush-urush» o'ynaydi. Chunki o'g'il bola, ya'ni bo'lajak erkak - tabiatan himoyachi, jangchi. Urush davri bolalari ham, sinfdagi o'tirgan tengdoshlari kabi, «urush-urush» o'ynashgan va, xuddi hozirgi bolalar kabi, bu dahshatning asl mohiyati haqida o'ylab ko'rishmagan. Ular urushni qiziq bir tomosha, shunchaki bir o'yin tarzida qabul etganlar. Mazkur dostonda bola nazaridagi urush va *urush* atalmish chinakam shaytoniy hodisaning bolalar va kattalar taqdirida qoldirgan izlari dahshatli hayotiy parallellarda tasvirlangan:

*Olam uzra kezar zo'r suron,
Biz bu haqda o'ylamaymiz hech.
«Urush-urush» oyin bo'lsa bas.
Titratamiz ko'k-u zaminni.
Kim oylabdi deysiz, u nafas
Bu urushning rostakamini.
Burchaklardan bir-birimizni
Yog'och miltiq bilan otamiz,
Biz bilmaymiz: qay birimizning
O'qqa uchdi bu vaqt otamiz,
Ko'ksimizni ushlagancha jim
Yiqilamiz, o'lgan bo'lamiz.
Biz dunyoda rostakam o'lim
Borligini qaydan bilamiz?*

*Dahshat solib kezarkan u dam
Uzoqlarda jang guldurosini,
Bizning qishloq ko'chasida ham
Yangrar edi aksi sadosi.*

Tahlil jarayonida o'quvchilar urushning o'zbek qishloqlarida yangragan aksadosi ifodalangan satrlarga munosabat bildirsalar, ma'qul bo'ladi. O'qituvchi doston qahramonining «o'yinlardan erta to'ygan»ligi to'g'risida gap borgan oltinchi qismdagi tasvirlar borasida o'quvchilardan fikr olishi kerak. Doston yettinchi qismining oxirgi to'rt misrasini o'quvchilarga qayta o'qitib, «*Dadam xatin o'qib savod chiqarganman*», - deya faxrlanayotgan bola tabiati haqida ularning fikrini bilish kerak. Bolaning otasiga yozgan maktubida: «*Sizni juda sog'indim. Sog'indim ikkala ko'zim bilan teng*» satrlari bor. Ushbu misralarga o'quvchilar alohida e'tibor qilishlari kerak. Har bir o'quvchi o'z bolaligining shunga o'xshash bosqichini xotirlasa, doston qahramonini yaxshiroq anglaydi. Bu sinfdagi o'smirlar ham bolalik chog'larida kimlardandir: «Meni sog'indingmi?», - degan savolni eshitgan. Tabiiyki, tasdiq javobini berishgan. O'shanda undan: «Qaysi ko'zing bilan sog'inding?»- deb so'rashgan. Bolalar sog'inch tuyg'usini ham moddiy narsaday qabul etishadi. O'quvchilar shu o'rinda hamma bolalarga xos umumiylikni aniq his qiladilar. Natijada asar qahramoni bilan o'quvchilar o'zaro yaqin-lashadilar. Shunda ularning bir-birlarini his etishlari, tushunishlari osonlashadi.

Asarda bola otasiga yozgan xatda o'zining nazarida e'tiborli ko'ringan voqealarni tasvirlagan. Endigina birinchi sinfga borayotgan murg'ak bolakayning esida qolgan holatlar dahshati bilan katta kishilarni hayajonga soladi:

*Rustamning akasi urushdan qaytdi,
Qo'ltiqtayog'i bor, bir oyog'i yo'q.
Rustam aytib berdi: ataka payti
Tizzasidan olib ketgan emish o'q...
Xol aka qaytganda uyga to'satdan,
O'g'li, dadajon, deb chopib kelibdi.*

*Ota quchay desa qo'li yo'q ekan,
Tik turgan joyida yig'layveribdi...
Darsga kelmay qoldi tunov kun Tal'at,
Muallim urishsa, turaverdi jim.
Dadasidan kelgan ekan qoraxat.
Hammamiz yig'ladik, hatto muallim.*

Xatdagi bu bolalarcha samimiy ma'lumotlarda *urush* degan baloning insonga yetkazgan iztirob-u alamlari samimiy, ta'sirchan va ishonarli tarzda moddiylashgan. Yetti yashar bolaning yozganlari zamiridagi og'ir ruhiy-hissiy ma'no oltinchi sinf o'quvchilari e'tiboridan chetda qolmasligi kerak. Shu o'rinlarni qayta-qayta yoddan o'qib berish kerak. Shundagina bugungi bolalar uzoq o'tmishdagi kishining dardini o'ziniki singari tuyadi. Bolaning xatidagi: «*Buvim aytgan, agar men tilak tilasam, tilagim bo'larmish doim ijobat*», - degan satrlarni o'quvchilar sharhlashgani ma'qul. O'zbekcha tafakkur tarzining belgisi bo'lmish bunday ishonch yana qaysi asarda ifodalanganini o'quvchilar eslashga urinib ko'rsalar, maqsadga muvofiq bo'ladi. Agar bolalar buni eslay olishmasa, o'qituvchi «Bemor» hikoyasidagi qizaloqning duosi bilan «Nido» qahramonining tilagi o'rtasidagi mushtaraklikka e'tibor qaratadi.

Dostonning o'ninchi qismida «*Hijron kechalari g'oyatda uzun, ayriliq yo'llari olis nihoyat*» satrlari bor. O'quvchilar bu misralarni chuqurroq tahlil qilganlari ma'qul. *Hijron kechasi, ayriliq yo'li* kabi obrazli iboralarning asl mohiyatini ochishga, ularning matnda tashiyotgan vazifasini aniqlashga urinib ko'rsalar, adabiy didlari noziklashadi, badiiy nigohlari o'tkirlashadi. Chunki kechani uzun qilayotgan narsa uning hijron bilan bog'liq ekanida, ya'ni qahramon uxlay olmay to'lg'anayotganida. Ayriliqning yo'li olisligi shundaki, uzoqlarda jang qilib yurib halok bo'lgan ota diydoriga yetish mumkin emas.

Dostonda urush shafqatsizligining yorqin ko'rinishi tarzida ikki yoqdan bir-biriga tomon bir vaqtda yo'lga chiqqan ikki xat haqidagi satrlar o'quvchilar tomonidan alohida idrok etilishi lozim. O'quvchilarning mazkur holatni ko'z oldilariga keltirib, ko'ngillaridan kechayotgan tuyg'ularni ifodalay bilishlari adabiy ta'limning

to'g'riligidan dalolatdir. Bu hol o'smirlar o'zganing fojiasini tuygani va boshqaning ruhiyatidagi og'riqni his qilganlaridan dalolatki, o'qituvchi uchun bundan yuksak natijaning bo'lishi mumkin emas.

Dostonning o'ninchi qismida o'quvchilar otaning asar qahramoniga qarata aytgan: «*Otang bolasi bo'lma, odam bolasi bo'l*» tarzidagi o'gitiga munosabat bildirishlari lozim. Shu bahonada otasi tufayli asar qahramoni tuygan iftixor, g'urur tuyg'usining sabablari sharhlansa, uning mohiyati oydinlashtirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. «*Mening mardlik maktabim o'zimning otam edi. Men otam farzandiman, u esa odam edi*» misralari orqali doston qahramoni o'z otasining hayot yo'liga qanday baho berayotganiga o'quvchilar e'tibori qaratilishi kerak. O'smirlar qahramonning maqsadiga ahamiyat bersalar, lirik qahramon bilan otasi o'rtasida o'xshashlik va uyg'unlikni teranroq payqaydilar.

O'smirlar diqqati dostonning o'n birinchi qismida jang tafsilotiga, ya'ni ko'kragida qo'rg'oshin bilan yerni quchgancha toshlarga boshini qo'yib tinch uxlayotgan to'rt qahramon o'g'lonning holatiga, bunday yo'qotishning achchiqligiga chidamay, tabiat ham ko'z yosh to'kkaniga qaratilishi lozim. O'quvchilar e'tiborini insoniy fojiaga tabiatning munosabati tasviriga tortish, ularni asardan tabiat va inson orasidagi uyg'unlik ifodasini topishga yo'naltirish lozim.

Asar o'n ikkinchi qismining hayotiy mohiyati va ifodaviy jozibasini ochish yuzasidan o'quvchilarga alohida topshiriq berish mumkin. Yerning chekkan ozori aslida uning sovuq bag'rida yotgan begunoh odamlarning ozoridir. Negaki, inson o'z qoni bilan biz yashayotgan, o'ylamay qadam bosayotgan yerning har bir qarichini muqaddas qilgan. Shoirning zamondoshiga qarata:

Yerni tepma, asta bos qadam,

Yetar uning chekkan ozori.

Biz turgan yer, biz kezgan olam,

Ekan fidoyilar mozori, -

tarzidagi xitobi shunchaki chaqiriq emas, balki bolalarning otalar oldidagi burchi, hayotning go'zalligi, Vatanning muqaddasligi, zaminning bag'rikengligi odam tufayli ekanligini esga soladigan haqqoniy xulosadir. Bu misralar insoniyat

istiqboli, ozodligi yo'lida jon fido qilgan urush qatnashchilarining tabarruk xotirasini unutmaslikka undaydi. O'qituvchi ikkinchi jahon urushi janggohlarida ellik milliondan ziyod kishi halok bo'lganligi, ular orasida sinfdagi har bir o'quvchining biror ajdodi borligi haqida ma'lumot bersa, darsning ta'sir darajasi yanada oshadi. Lirik qahramonning: «*Tengdoshim. Asrdosh birodar!*» - deb kimga murojaat etayotganligi borasida o'quvchilar bosh qotirib ko'rishlari kerak. O'smirlar o'ylab ko'rishsin, ehtimol, bu murojaat ularga qilinayotgandir. Lirik qahramonning asrdoshlariga murojaati butun sinf tomonidan shiorday, qasamyodday yoppasiga yoddan aytilishiga erishish kerak.

Dostonda ishlatilgan o'xshatishlar asarning ta'sirli chiqishida muhim o'rin tutgan. Ayniqsa, undagi: «*Quzg'unning qanotiday qaro edi o'sha tun*». «*Avtomatlar bosh uzra ko'tarildi tug'simon, ona bag'rida yotgan ma'sum go'dak singari*» kabi o'xshatishlar asarda tasvirlanayotgan voqealarni o'quvchilar ko'z oldiga yaqqol keltirishga, lirik qahramon holatini aniqroq tasavvur qilishga yordam beradi. O'quvchilar doston boshidagi *ota nidosi* bilan asar so'nggidagi *asr nidosi* o'rtasida bog'liqlik nimada ekani haqida asar matniga tayanib fikr yuritsalar, dostonning «Nido» deb nomlanish sababi to'g'risida o'z qarashlarini aytsalar, ma'qul bo'ladi.

Erkin Vohidovning «Nido» dostoni bo'yicha bahs-munozara dars namunasi

Maqsad: o'quvchilarni urush tufayli qalblari majruh bo'lgan bolalar, onalar, otalarning tuyg'ularini his etish ruhida tarbiyalash, urushga nisbatan ular ko'nglida nafrat uyg'otish.

Darsning rejasi:

1. O'tilgan mavzuni so'rash va mustahkamlash.
2. Yangi mavzuni bayon qilish. Guruhlarda ishlash.
3. Bahru bayt o'tkazish.
4. She'rlarni izohlash.
5. Test topshiriqlari bilan ishlash

6. Dostonning badiiy xususiyatlari.

7. Darsni mustahkamlash va uyga vazifa topshirish. O`tilgan mavzuni savol-topshiriqlar yordamida so`rash va mustahkamlash

Yangi mavzuni bayon qilish. Guruhlarda ishlash. Dostonni o`quvchilar sevib o`qiydilar, u yengil yod olinadi. O`qituvchining vazifasi o`quvchilarni matn bilan ishlashga, tahlil qilishga, urush va uning oqibatlarini his ettirishga, urush tufayli qalban va jismonan yaralangan millionlab kishilarning fojiasi takrorlanmasligi uchun tinchlikni asrash, buning uchun kurashish ruhida tarbiyalashdir. Birinchi soatda doston matni o`qitilib, savol- topshiriqlar ustida ishlanadi, o`quvchilar asar ichiga chuqur-roq olib kirilgach, keyingi darsda doston yuzasidan bahs-munozara o`tkazilishi yaxshi natija beradi.

O`quvchilar guruhlariga bo`linadi, guruh a`zolari hamkorlikda matnni tahlil qilishlari erkin fikrlash uchun imkoniyat yaratadi.

Bahru bayt o`tkazish.

I-guruhni «G`azalxon yoshligim» deb nomlash mumkin.

Bu guruh shiori:

Toshga ham shirin g`azal

Baxsh aylagay otash va jon,

Shavq o`ti yonsa agar

Shoir-g`azalxon qonida

Bu guruh a`zolari E. Vohidov g`azallari asosidagi g`azalxonlik, bahru bayt orqali g`azal toshga ham jon bag`ishlashi mumkinligini ifodali, ta`sirli o`qilgan baytlari bilan isbotlaydilar.

1-o`quvchi:

Tarixingdir ming asrlar ichra pinhon, o`zbekim,

Senga tengdosh Pomiru oqsoch Tiyonshon, o`zbekim.

2-o`quvchi:

Mamlakatga mamlakat, millatga millat bo`lsa qasd,

Qilg`uchi so`ng oqibat armon o`zing, afg`on o`zing.

3-o`quvchi:

*Gul bo`lib, gulgul yonib, gulshan aro gulchehralar,
Gul uzib o`ynar, qo`yib gulga bino gulchehralar.*

4-o`quvchi:

*Rost, qalam timsoli she`r, timsoli tig`, timsoli haq,
Boshini ming kesdilar, bosh egmadi aslo qalam.*

5-o`quvchi:

*Menda na borliq xayoli, menda na yo`qlikka g'am,
Manglayimga chunki she`rdan o`zga zar bitgan emas.*

6-o`quvchi:

*Sangi dilning hasratida qancha dillar dard chekib,
Ko`zlarining g`urbatida qonga ko`zgiryon emish.*

She`r mazmunini izohlash

Guruh sardori a`zolarining fikrlarini umumlashtirib, haqiqattan ham shoir g`azallarida she`rning ulug`lanishi, shoir mangliayiga she`rdan o`zga zar bitilmaganligidan quvonishi, she`r dardi bilan yonishi, o`z tuyg`ularini haroratli misralarda bayon etganligini misollar bilan asoslab beradi.

Yoniq jonim aro jonlar qilur faryodu afg`onlar

Bu ko`ksim ichra isyonlar Bitilmish ibtido menga.

2-guruh «Zukkolar»ga lahzalik savol-javob va test topshiriqlari beriladi. Bu guruh shiori-«Bilim yodlash bilan emas, fikrlash bilan orttirilgandagina haqiqiydir». Mazkur shiorga amal qilib, ular test savollariga to`g`ri javobni fikrlab topadilar va izohlaydilar. Test savollarini o`quvchilarning o`zlariga matndan tuzdirish ham mumkin.

test topshiriqlari

1.Quyidagi parchada qo`llangan tasviriyy- badiiy vositani belgilang

Oltin sochmoqdadir

Elga beayov

Shahar, qishloqlarni

Yutmoqda olov

- A.Tashbeh;
- D. Jonlantirish.
- B.Tazod;
- E. Sifatlash.
- S. Mubolag`a.

2. «Nido» dostonidan olingan quyidagi parchada xalq og`zaki ijodining qaysi turidan foydalanilgan?

Bobolarning hikmati

Hayotga yorug` yo Idir,

Otang bolasi bo`lma,

Odam bolasi bo`l der

- A. Hikmat; B. Masal; S.Matal; D. Maqol; E. Pand:

3. Quyidagi parchada qaysi tasviriyy-badiiy vositadan foydalanilgan?

Avtotmatlar bosh uzra

Ko`tarildi tug`sitnon

Birin-ketin daryodan

Suzib ketdi to`rtovlon.

- A.Sifatlash B.O`xshatish S.Jonlantirish D. Qarshilantirish E. Metafora

4. Quyidagi she`riy parchada qo`llanilgan badiiy-tasviriyy vositani belgilang.

Ma`sum go`dak singari

Shu tong sabo yig`ladi

Chidolmay bu firoqqa,

U ham yosh to`kdiyu, chekildi nari.

- A.Mubolag`a,sifatlash.
- D. O`xshatish, sifatlash.
- B. Jonlantirish, o`xshatish
- E. Istiora, ibora.
- S. Sifatlash, mubolag`a.

Dostonning badiiy xususiyatlari

3-guruh: «Yosh tilchilar» deb nomlanadj va ular dostondagi o`xshatish, sifatlash, xalq og`zaki ijodidan namunalarni topadilar. Ularning shiori «She`riy san`atlar-asarning joni»

**1-o`quvchi:** Men dostonni o`qish jarayonida «qora o`q», «og`ir qadamlar», «otashin falak», «tund kecha», «quyuq zulmat» kabi sifatlarni topdim.

**2-o`quvchi:** Dostonda «Quzg`unning qanotiday Qaro edi o`sha tun», «Ona bag`rida yotgan Mas`um go`dak singari», «Avtomatlar bosh uzra Ko`tarildi tug`simon», «Xayolning tumanli pardasi» kabi o`xshatishlardan shoir mohirlik bilan foydalangan

**3-o`quvchi:** Shoir «Otang bolasi bo`lma, Odam bolasi bo`l» kabi maqolda o`z o`rnidan foydalangan.

**4-o`quvchi:** Bir o`rinda esa «Go`daklarning tilagi ijobat bo`ladi» hikmatli so`zini she`riy satrlarga singdirib yuborgan:

Buvin aytgan, men tilak qilsam, Tilagim bo`larmish doim ijobat,

**5-o`quvchi:** Onaning allasi ayanchli, ayni vaqtda mungli bo`lsada, dilga orom bera oluvchi qo`shiqdir.

— *Nega yig`layapsan, Yolg`izim, qo`zim?*

Tun uzoq , uxlay qol, Ko`zlaringni yum.

Orom ol, men senga Allalar aytay.

Tongda peshonahgdan o`pib uyg`otay.

Guruh a`zolarining javoblari tinglangach, darslikda berilgan savol va topshiriqlar ustida ishlanadi. Bunda barcha guruh a`zolari qatnashadi. O`qituvchi darslikka qo`shimcha shunday savollar topsinki, unga javoblar turli-tuman bo`lsin. Masalan, dostonda shunday satr bor: «o`g`lim» degan nido keladi. Bu nido faqat otaning nidosimi?

1-o`quvchi: Ha, ota nidosi bu!

2-o`quvchi: Bu urush tufayli yetim qolgan millionlab yetimlar nidosi.

**3-o`quvchi:** Uzoq o`lkalarda jang qilib jasadi o`zga joylarda qolib ketgan urush qurbonlarining nidosi.

**4-o`quvchi:** farzand dog`ida kuygan ota-onalarning nidosi.

O`qituvchi: Urush jarohatlari qay o`rinda ta`sirchan ko`rsatib berilgan?

**1-o`quvchi:** «Ota quchay desa, qo`li yo`q ekan, Tik turgan joyida yig`layveribdi» satrlarini o`qiganda ko`zimdan yosh chiqib ketdi.

**2-o`quvchi:** «Rustamning akasi urushdan qaytdi. Qo`ltiqtayog`i bor, Bir oyog`i yo`q» misralarini o`qiganimda ko`z oldimga hali uylanmagan yosh yigitchaning urush tufayli oyoqsiz qaytib kelgani, ataka payti o`q tizzasini olib ketgani urushga nafratimni oshirdi.

**3-o`quvchi:** «Darsga kelmay qoldi tunov kun Tal`at, Muallim urishsa turaverdi jim. Dadasidan kelgan ekan qora xat Hammamiz yig`ladik, Hatto muallim»

**4-o`quvchi:** Urush va dadasini sog`ingani tufayli bolaning onasiga bergan savollari menga juda ta`sir qildi. Urush bo`lmaganda edi, bolakay o`ynab-kulib bu savollarni berib ayasini qiynamagan bo`lard:

Ayting, dadam meni yaxshi ko`rdimi?

Kelganida toychag` olib berdimi?

Ko`chalarda toychog`imni etaklatib,

Qo`llarimdan ushlab olib yuradimi?

**5-o`quvchi:** Urush tugab, oradan 20-yil o`tsada, jarohatlar hali bitmagan.

Bag`rim o`yib,

Bu kun menga bermoqda azob,

Sizning ko`ksingizni teshgan qora o`q.

Silqib oqayotir ko`kragimdan qon.

Qalbim o`rtanmoqda, so`ngsiz armonim...

O`qituvchi: Nima uchun shoir «Yerni tepma, Asta bos qadam» deb murojaat qilyapti.

**1-o`quvchi:** Bu savolga shoirning o`zi javob beradi: «Biz turgan yer, Biz kezgan olam, Ulkan fidoyilar mozori».

**2-o`quvchi:** Muqaddas zaminimiz yer bizni boqadi, ulg`aytiradi.

3-o`quvchi: Bu yerda millionlab avlod-ajdodlarimiz hoki bor.

**4-o`quvchi:** Qo`ltiqayoqlarning zahmidan ingrayotgan Ona-yerni asrashimiz kerak.

**5-o`quvchi:** Atomlarning vahmidan yuragi pora tup-roqqa sodiq qolmog`imiz, bu fojia takrorlanmasligi uchun kurashmog`imiz darkor.

Dars so`ngida o`quvchilar baholanadi. Faol o`quvchilar rag`batlantiriladi.

Uyga vazifa: She`rdan parcha yod olish.

Xulosa shuki, bunday darslarda o`qituvchilar o`quvchilarga badiiy did, estetik zavq, nozik tuyg`ular shakllantirishga e`tibor berishi, o`quvchilarning qo`lga tushgan kitobni oldi-ortiga qaramay o`qiyveradigan emas, balki adabiyoti nozik his etadigan, chuqur fikr qila oladigan, teran anglaydigan kishilar bo`lishga diqqatini yo`naltirishi lozim.

XULOSA

Erkin Vohidov kabi chinakam iste'dod egalarining hayoti va ijodidan namunalar umumta'lim maktablarida ikki sababga ko'ra o'rganiladi. Birinchidan, bunday insonlarning hayot yo'lidan yoshlar o'rnak olishadi. Ikkinchidan, ular bitgan asarlar millat yoshlari ma'naviyatini shakllantirishga asos bo'ladi. Shu bois ham o'rta umumta'lim maktablarida O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov hayoti va ijodini o'rgatishga salmoqli o'rin ajratilgan. Mashhur adib asarlarini umumta'lim maktablarining beshinchi, oltinchi va o'n birinchi sinflarida o'rgatish ko'zda tutilgan.

DTS bo'yicha 5-sinf adabiyot darslarida E.Vohidovning "O'zbekim" qasidasi o'rgatish mo'ljallangan. E.Vohidovning "O'zbekim" qasidasi o'tmishdagi alloma va mutafakkirlarimiz, buyuk sarkarda bobokalonlarimizning bosib o'tgan sharaflari yo'llari, jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissalariga haqida yosh avlodning faxr to'yg'ulari ko'tarinki pafosda tasvirlanadi. Biroq, asarda tasvirlangan Chingizxon, Botu, qaysari Rum, Al Beruniy, Al Xorazmiy, Al Farobiy, Mirzo Ulug'bek kabi allomalar, Firdavsiy, Pushkin, Bayron, Nodira, Furqat, Muqimiylarning kim ekanligini, qadimiy Afrosiyob shahri, qadimgi O'rxun yozuvi haqidagi ma'lumotlarni tasavvur etishda 5-sinf o'quvchilarida bazaviy imkoniyatlar etarlicha emas. Shuning uchun qasidani tahlil qilish, mazmunni o'zlashtirish, qasidaning lirik qahramoni hissiyotlarini anglab etish jarayonida o'quvchilarda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarda darsdan zerikish, mavzudan chalgish holatlarini kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Shuningdek qasida aruz vaznida yozilganligi sababli, uni ifodali o'qish uslubi ham o'ziga xos bo'lib, o'qituvchidan 5-sinf o'quvchisi bilan uni maromiga etkazib o'qish ustida jiddiy ishlashni talab etadi.

Shuning uchun o'qituvchilar bunday mavzularni o'tishda darslarga atroflicha tayyorgarlik qurishlari, dars jarayonida barcha imkoniyatlardan unumli va o'rinli foydalanishlari lozim.

O'quv dasturida «Nido» dostonini o'rgatish uchun uch soat vaqt ajratilgan. Bu darslarda o'qituvchi har bir dars oldiga to'g'ri maqsadlar qo'ya olgandagina yaxshi natijaga erishishi mumkin.

Doston urush atalmish baloning dahshatlari, insonning armonu tuyg'ulari, murg'ak qalbning iztiroblari ifodasi sifatida yuzaga kelgan. O'qituvchi asarni o'qiyotganda ana shu dard, iztirob va dahshatlarni o'quvchilarga his ettira olishi kerak. Buning uchun adabiyot muallimi o'quvchilarda uyg'onajak tuyg'ularni avval o'zida uyg'ota bilishi zarur. U shoir sezimlarini o'ziga ko'chirgandagina o'z «dard»ini o'quvchilarga yuqtira oladi. Adabiyot o'qituvchisrning qay darajada ta'sirchanligi, hissiyot olamining bokiraligi, ma'naviyatining go'zalligi shunday o'rinlarda yaqqol seziladi. U qanchalar samimiy bo'lsa, o'z tuyg'ularini chiroyli va yorqin ifodalay bilsa, o'quvchilarning tuyg'ulari ham noziklashib, hissiyotlari tiniqlashadi.

«Nido» singari yoniq qalb harorati bilan yozilgan she'riy bitiklarni o'quvchilarning hissiyotlari sovumasdan yaxlit holda idrok etishi kutilgan pedagogik samarani beradi. Buning uchun maktab ma'muriyati bilan kelishib, doston o'rganilishi lozim bo'lgan uch soatning ikkitasini juftlashtirish lozim. Shundagina avval o'tilgan darslarni so'rashga ham, «Nido»ning matni bilan to'liq tanishib chiqib, tahlilga kirishishga ham ulguriladi. Agar buning imkoni bo'lmasa, doston matnini taxminiy ikki qismga bo'lib o'qib chiqish va tahlilga kirishish mumkin. Dastlabki ikki soatda doston matni bilan o'smirlarni tanishtirgan o'qituvchi savol-topshiriqlar ustida ishlashni boshlab qo'yib, to'liq tahlilni oxirgi darsga qoldirishi ham mumkin. Har qanday holda ham doston matni bilan tanishishni uch darsga cho'zib yurmagan ma'qul. Aks holda, asarni o'qish jarayonida o'quvchiarda uyg'ongan tuyg'ular mavji bosilib, hissiyotlar sovub, matndan bir qadar uzoqlashib qolish mumkin. Har holda doston ustidagi ish o'quvchilarning bilimi, ularning tahlil ko'nikmalari qay darajada ekanligiga qarab olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Karimov I.A.** «Adabiyotga e'tibor-ma'naviyatga, kelajakka e'tibor», T.: 2009 y.
2. **Karimov I.A.** Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch, Toshkent, 2008
3. **Karimov I.A.** O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. Toshkent-2000,
4. **Karimov I.A.** Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori», Toshkent, 1998
5. **Ahmedov S., Qo'chqarov R., Rizaev M.,** Adabiyot. Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik-majmua.
6. **Ahmedov S., Tursunov M., R.Qochqorov R.,** Adabiyot. 6-sinf, O'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanma. Toshkent, "Ma'naviyat" 2005 y.
7. **Aliev A.** Maktabda yozuvchi uslubini o'rganish. Toshkent: «O'qituvchi», 1977.
8. **Babanskiy Yu.K.** Hozirgi zamon umumiy ta'lim maktabida o'qitish metodlari. Toshkent. «O'qituvchi» 1990 y.
9. **Vohidov E.** Saylanma (4-jildlik). T., "Sharq" nashriyot birlashmasi., 2000-2002 y.y.
10. **Вахидов Е.** Лирика. Ташкент, изд.Лит. искусства. 1970 г.
11. **Dolimov S., Ubaydullayev X., Axmedov K.,** Adabiyot o'qitish metodikasi - T.: «O'qituvchi», 1967 y.
12. **G'ofurov I.** Joziba. Toshkent, G'. G'ulom nomidagi adabiyoti va san'at nashriyoti, 1970, 162-bet.
13. **G'ofurov I.,** Bedor vijdon. "O'ttiz yil izhori" kitobida. T., Adabiyot va san'at nashriyoti. 1987 y.
14. **Zunnunov A.,** 4-10-sinflarda adabiy-nazariy tushunchalarni o'rganish. Toshkent, «O'qituvchi», 1974, 5-bet.
15. **Jo'raev Q.,** Adabiyot kabineti va o'qitishda ko'rgazmalilik. Toshkent.: «O'qituvchi», 1965 y.
16. **Mirqosimova M.** Adabiy ta'lim metodikasi. –T. 1993
17. **Mirzaev S.** XX asr o'zbek adabiyoti, T, 2005
18. **Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B, Normatov U, O.Sharofiddinov.** XX asr o'zbek adabiyoti tarixi, Toshkent, 1999 y.
19. **Karimov N., Normatov U.** Adabiyot 5-sinf uchun o'quv qo'llanma. Toshkent, 2004
20. **Karimov N. va boshqalar.** XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, «O'qituvchi», 1999.
21. **Inog'omov R.** Shoir bo'lish osonmas... T., Adabiyot va san'ati nashriyoti., 1996 y.
22. **Xojiahmedov A., Hasanova A.,** Fayzullaeva M., Vatan adabiyoti 8-sinf uchun darslik majmua. Toshkent, 1992 y.
23. **Qurbonov Sh., Seytxalilov E.** Ta'lim sifatini boshqarish. T.: "Turon-Iqbol". 2006-yil.
24. O'zbek adabiyoti. (Ma'ruzalar matni) Toshkent, Nizomiy nomidagi

- ToshDU nashriyoti, 2002.
25. **Imomov B., Jo`raev Q., Xakimova Q.** “O`zbek dramaturgiyasi tarixi” - T., “O`zbekiston” 1995 yil.
 26. **To`xliiev B.** “Adabiyot o`qitish metodikasi” –T, “Yangi asr avlodi” 2006 yil.
 27. **Hotamov N., Sarimsoqov B.,** Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. Toshkent, «O'qituvchi», 1979, 241-bet.
 28. **Yo`ldoshev J.** va boshqalar. Zamonaviy dars. T.:2007.
 29. **Yo`ldashev Q.** Adabiyot o`qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: O`qituvchi, 1996
 30. **Yo`ldoshyev Q.,** Maktabda Erkin Vohidov ijodini o`rgatish., “Til va adabiyot ta`limi” jurnali. 2006 y. 6-son